Uy-joy qurilishida suv ta'minotiga ham alohida e'tibor berilgan. Qishloqlarda shundoqqina hovli oldidan yoplar oqib o'tgan. Shaharlarda quduqlar va hovuzlar asosiy suv manbai hisoblangan. Aholi turar joylarini bino qilishda shu elat(mahalla)ni ustasini bosh qilib, qo'shnilarini hasharga aytib o'z imkoniyati va o'z dunyoqarashidan kelib chiqib qurishgan.

Xalq me'morchiligida ayrim nuqsonlar bo'lsada, bu uylar ko'pga chidagan, pishiqliq bo'lган va muhandislik talablariga javob berishdan tashqari iqlimiyligi xususiyatlarga ega bo'lган. Yozda uylar salqin, qishda esa iliq bo'lган. Qalin paxsa devorlar issiq va sovuqni yaxshi saqlagan.

Xonalarni qizitish katta muammo bo'lган . Ko'p hollarda o'choq uyning o'rtasiga qurilgan va undan uyni qizitishda ham foydalanganlar. Respublikamizning

boshqa mintaqalarida sandaldan foydalanilgan bo'lsa, Xorazmda mo'rili o'choq keng ishlatalilgan. Uyni yoritishda sham va "shuttik" (moychiroq)lardan keng foydalanilagan. Xorazm uylari boshqa joylarga qaraganda baland qilib qurilgan, sahnga bo'yra yoyib, ustidan kigiz to'shaganlar. Boy xonadaonlarda shipga yog'ochdan maxsus bezak ishlangan, sahnga pishiq g'isht to'shalgan.

Aholi turar joylari shaharlarda zinch, bir-biriga yondosh qilib qurilgan. Qishloqlarda hovlilar orasida ekin maydonlari qoldirilgan. Ayrim shaharlarda ko'chalar rejalashtirilgan va tosh yotqizilgan. Qishloq joylarida o'ziga xos kanalizatsiya mavjud bo'lgan. Peshtoqda (poygak) maxsus qo'l yuvish joyi bo'lib, uning suvi tashqariga ketgan. Bunday joylar Xorazmda adan deb ataladi va pishirilgan sopoldan ishlangan. Shaharlarda esa butun boshli tizim bo'lgan. Yomg'ir va zax suvlar shuningdek ifloslangan suvlar uchun sopol quvurlar yotqizilgan bo'lib, shahar tashqarisidagi zahkachga chiqqan. Buni arxeologik qazish natijalari ham isbotlaydi.

Me'morchilik asosan geografik sharoit va tabiiy iqlim bilan bog'liq. Xorazmda yerosti suvlari yaqin, yozi issiq, kamyog'in, tog'lar deyarli yo'q, bu zilzila xavfi kamligini anglatadi. Shundan kelib chiqib uylar balandroq joyga qurilgan, baland dolon va ayvonlar, qalin paxsalar uylarni salqin bo'lishini ta'minlagan, kamyog'in bo'lishi lo'mbozni unchalik qalin bo'lishin talab etmagan, zilzila xavfining kamligi bir qator sinchli uylar qurish imkonini bergen.

**JAMOAT INSHOOTLARI** hamma foydalanadigan imoratlardir. Ular jumlasiga: quduq, hovuz, bozor, karvonsaroy, guzar, tog'on, ko'prik, yo'l, yop, tegirmon, chig'ir, charxpalak kabilarni kiritish mumkin.

Sharqda qadimdan jamoa bo'lib yashash va ishlash an'ana bo'lib kelgan. Bunga tabiiy geografik sharoit ham sababchi bo'lган. Sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi katta irrigatsiya inshootlarini qurilishni talab qilardi. Barcha ishlar qo'lida zambil va ot aravalar yordamida bajarilgan. Suv tog'onlari, kanal, ariqlar barpo etish va ularni tozalash ishlari begor (hashar) yo'li bilan amalga oshirilgan. Sug'orish inshotlari sohasi (ayniqsa Xorazmniki) jonkuyar tarixchi Yahyo G'ulomov tomonidan to'la o'rganilgan.

Asosiy jamoat inshoatlaridan biri bu shubhasiz **quduqlar** hisoblangan. Har bir uy, hovli, masjid, madrasa, rabod va boshqa aholi markzalarida quduqlar mavjud bo’lgan. Quduq qazish juda og’ir va ma’sulyatli ish bo’lgan. Shu sababli “savob kerak bo’lsa, quduq qaz, ko’prik qur” - degan dono ota-bobolarimiz. Qazilgan joyni pastiga taglik- “soz” o’rnatilgan, keyin ustidan tosh yoki pishiq g’isht terib chiqqanlar. Quduq qazish ayniqsa qumloq hududlarda ancha mashaqqatli bo’lgan. Ishlar asosan qo’lda ketmon va belkurak yordamida bajarilgan. Qishloq atrofida quduq atrofiga gujum ekilgan. Bu iqlim xususiyati bilan bog’liq bo’lib, gujumning qalin soyasi jazirama issiqda quduq suvining muzdek bo’lishini ta’minlagan. Quduqlarning shunday xususiyati borki, kishini hayratga soladi. Quduq suvlari yoz kunlari muzdek, qish kunlari esa iliq bo’ladi. Hozir ham qishloq joylarida vodoprovodlar bilan birgalikda quduqlardan ham foydalaniлади. Quduqlardan tashqari chashma yoki buloqlar (o’zi otilib yoki qaynab chiquvchi yer osti suvlari) ham muhimahamiyatga ega. Buloqlar suvi quduqlarningdan yaxshiroq hamda foydalidir, chunki ular doimo oqib turadi. Buloqlar atrofi ozoda saqlangan, daraxt va gullar ekilgan, muqaddas joy sifatida e’zozlangan.

**Hovuzlar** – aholining asosiy suv manbalridan biri hisoblanadi. Odatda yoplar bor joylarda oqar suv ishlataligan. Oqar suv toza va musaffo bo`lgan. Yoplar yo`q yoki uzoq joylarda quduq, hovuz va sardoba kabi suv inshoatlaridan foydalaniлган. Quduqlar haqida yuqorida alohida to`xtalib o`tdik. Hovuzlar usti ochiq suv saqlash joyi, shaharlarda zahirada suv saqlash uchun hovuzlardan foydalanganlar. “Hovuz hajmi shu mahalladagi suvdan foydalanuvchilarga qarab belgilangan”. Xorazmda asosan aholi zich shaharlarda darvoza oldida joylashgan. Hovuzlar to`g`rito`rtburchak yoki kvadrat shaklida rejalashtirilgan. Sathiga va devoriga kvadrat pishiq g’isht terilgan, bu suvni yerga singib isrof bo’lishini oldini olgan. Hovuzga suv maxsus sopol yoki g’isht quvurlar orqali ariqchalardan keltirilgan. Hovuzlar atrofiga gujum ekilib, supa qilib qo`yilgan. Hovuzda suv toza, musaffo saqlangan. Hovuzdan tashqari sardoba, obxona kabi suv degan maxsus suv saqlash binolari bo`lgan.

**Sardoba** bu - usti yopiq hovuzdir. Sardoba pishiq g`isht yoki toshdan qurilgan. Gumbazi unchalik baland bo`lмаган. Sardobalar suvni chang-to`zondan, turli hashoratlardan saqlagan. Sardoba(hovuzlar ham)lar yer kovlanib barpo etilgan, bu suvni muzdek bo`lishini ta'minlagan. Sardobalar yonidagi quduqlar yoki yomg`ir suvlaridan to`latib turilgan. Sardobalar haj(Makka)ga borish yo`lida va suv yo`llarida ustida karvonni suv bilan ta'minlash maqsadida barpo etilgan. O`lchamlari asosan diametri 8.5X17 m bo`ladi. Mankovskaya ta'kidlashicha sardobalar O`rta Osiyoda uch tosh (24 km)dan qurilgan.

**Ko`priklar** – muhim jamoat va strategik davlat inshaoatlari hisoblanadi. Ko`prik suvdan yoki chuqurlikdan o`tish moslamasi. Xorazmda asosan suv inshoatlari ustidan otadigan ko`priklar qurilgan. Xorazmda suv inshoatlarining ko`pligi ko`priklarning xilma-xil va ko`p bo`lishini talab qilgan. Ko`priklar hajmiga ko`ra turlicha bo`lgan: katta, kichik, odamlar yo`lagi, osma ko`prik kabi. O`ra (ustun)li yog`och ko`priklarni katta yoplar, zahkashlar ustiga ishlatishgan. Kanal osti qazilib (yoki o`ra qoqilib) ko`prik o`ralari o`rnatilgan. Suv olib ketmasligi uchun o`ralar 1-1.5 m yer ostiga ko`milgan. O`ralar ancha katta bo`lgan (diametri taxmina 50-100sm) . Kanalning katta kichikligiga qarab, ko`prik bo`yiga 2-4-6m va undan ham ko`p, ko`prik kengligiga qarab 2 yoki 3 o`ra o`rnatilgan. Ular ustiga bolorlar qo`yilib, temir mixlar bilan mustahkamlangan. Ustiga kichik bolorlar terib chiqilgan, uning ustidan taxta yoki qamish, qog`a yoyilgan va loyband qilinib ustidan tuproq tortilgan. Bunday ko`priklar yilora ta'mirlab, teshilsa yopib, o`ralar chirisa almashlab turilgan.

G`ishtin ko`priklar quriladigan joy qazilib, yonboshlari kengaytiriladi. Pishiq g`isht ravoqsimon shaklda terib chiqiladi. G`isht terishda suvga chidamli qorishma ishlatilgan. Barcha qismlari shu alfozda qurilgan. Natijada tonnelga o`xshagan, tubi to`rtburchakli yuqorisi yarim aylana shakldagi ko`prik bunyod etilgan. O`lchamlari taxminan 4X4/6m bo`ladi. Osma ko`prik ko`proq kichikroq yop va ariqlar ustiga qurilgan. Ikki chetiga o`ra ko`milib, unga arqon bog`langan, uning ustiga xoda yoki taxta bog`lab chiqilgan. Suv oqizib ketmasligi uchun 2-3 joyidan tortib bog`lab qo`yilgan. 70 sm balandlikdan boshqa arqon tortilgan, u odamlarni yiqilib

ketmasligini ta'minlagan. Osma ko'priklar asosan bir kishilik bo'lib, odamlar uzog`ini yaqin qilgan. Amudaryo, yirik kanallar ustiga ham ayrim ko'priklar qurilgan. Amudaryodan kechishda asosan sollardan foydalanganlar, chunki daryo tez-tez toshib ko'priklarni oqizib ketgan, qolaversa daryoda kemalar suzishiga halaqit bergen. Bugungi davrda ko'priklar zamonaviy materiallar va texnologiyalar asosida juda mustahkam qilib qurilmoqda

Keng tarqalgan jamoatchilik inshoatlaridan yana biri **karvonsaroylardir**. Karvonsaroylar tarixini savdo-sotiq rivojlangan bronza davri bilan bog`lash mukin. O'rta Osiyoda Buyuk Ipak yo`li (mil. av. 120 yil) ochilgandan keyin karvonsaroylar keng tarqalgan. Karvonsaroy bu— o`zga yurtlardan kelgan savdogarlar, musofirlar tushib dam oladigan qo`noq hisoblanadi. Karvonsaroylarni ikki turga ajratish mumkin: shahar karvonsaroylari va savdo yo`llarida joylashgan karvonsaroylar. Savdo yo`llari ustidagi karvonsaroy bekat vazifasini bajargan, yom-jom, rabod deb ham yuritilgan. Ko`pgina o'rta asr shaharlari karvonsaroylar atrofida vujudga kelgan. Shaharlardagi karvonsaroylar mehmonxona vazifasini bajargan. Karvonsaroylarda safardan charchab kelgan savdogarlar, sayyoohlar hordiq chiqarganlar. Karvonsaroylarda mehmonxona, omborxona, otxona, savdo doqkonlari, hunarmandchilik ustaxonlari bo`lgan.

Karvonsaroylar me'moriy jihatdan ikki xil uslubda qurilgan: g`ishtin va cho`bkori. Cho`bkori bu - yog`ochdan o`ralar tiklanib, ustiga xodalar (vassalar) yoyib, uning ustidan bo`yra bilan bostirishdir. Binoning devorlari ham bo`yradan qilinadi, ya`ni omonat qarorgoh bo`lib bozor qoshida joylashgan va yoz kunlari qo`l kelgan. Savdo ham ayni shu faslda qizigan. O'rta asrlarning bir xususiyati borki, o`g`irlik juda kam bo`lgan. Jumladan karvonsaroylar omborlarida savdogarlarning qimmatbaho mollari saqlangan, hech kim unga ko` olaytirmagan. Cho`bkori inshootlar qoldiqlari saqlanmagan. G`ishtin karvonsaroylar O'rta Osiyoda keng tarqalgan.

**Bozorlar** qadimdan Sharqning eng gavjum markazlari sanalgan. Qadimiy va o'rta asrlar bozorlari (ko`proq sotilgan mahsulotlari) haqida juda ko`p ma'lumotlar saqlangan. Katta shaharlarda doimiyva hatto tungi bozorlar bo`lgan. Kichikroq

shaharlarda va gavjum qishloqlarda haftaning ma'lum kunlarida bozor bo'lgan. Poytaxtda eng katta bozor bo`lib, barcha viloyatlar savdogar va xaridorlar kelganlar. Bundan tashqari turkman, qoraqalpoq, qozoq, Buzoro va Qoqon savdogarları turli mahsulotlar olib kelishgan. Chet mamlakatlardan Eron, Turkiya, Hindiston, Arabiston va Afg'onistondan savdogarlar kelgan. Bozorlar yozgi va doimiy yoki cho`bkori va g`ishtin usulda qurilgan. Cho`bkori imoratlar yozda issiqdan himoyalanish uchun shunchaki bostirmadan iborat bo`lgan. G`ishtin usti yopiq bozorlar O`rta Osiyoda chorsu, tim, toq nomlari bilan keng tarqalgan. Tim va toqlar qurish XVI asrda Buxoroda keng tarqalgan. **Tim** gumbazlaridagi tuynuklar orqali yoritilgan. Timning ikki tomonida savdo do`konlari joylashgan. Sharqiy guldasta tim peshtog`ining minorasi o`rnida foydalanilgan. Timdan tushgan daromad qo`shni Olloqulixon madrasasiga sarf etilgan. Hozirda karvonsaroy va tim yagona imoratga aylangan.

**Hammomlar** o'rta asrlarning o`ziga xos me'moriy yechimi ancha murakkab inshoatlari hisoblanadi. Jahonda hammomlar tarixi mil. av. IV-III ming yillikka (Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy, mil. av. I ming yillik Gretsiya, Rim)ga borib taqaladi. O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlardan uchraydi. Manbalarda arablar bosqiniga hammomlar bo`lganligi qayd etilgan. O'rta asr jamoat hammomlari faqat erkaklar uchun mo`ljallangan bo`lib, yuvinib poklanish, suv vositasida davolash va madaniy hordiq chiqarish joyi bo`lgan. Hammomlar odatda suvni va xonani issiq saqlash maqsadida yer ostida qurilgan, faqatgina gumbazlari ko`rinib turadi. Hammomlar asosan pishiq g`ishtdan, ganch yordamida terilgan. Sahnga ham pishiq g`isht to`shalgan eshik va derazalar qalin, qattiq yog` ochdan ishlangan. Hammomda dahliz, kiyimxona, sovuqxona, issiqxona, xodimxona (massaj), issiq suv turadigan hovuzcha, go`lax (suv qizdiriladigan xona) va boshqa qo`shimcha xonalar bo`ladi. Jamoat hammomlari bezaksiz, ganch bilan suvalgan. Hammomlar arxitektura jihatidan sodda bino bo`lsada, suvni qizdirish xonani qizdirish, iflos suvlarni chiqarish murakkab qurilmalar hisoblanadi qolaversa to`laligicha pishiq g`isht, namga chidamli qorishma o`sha davr uchun qimmatbaho materiallar hisoblangan. Hammomlardan tashqari barcha masjidlar qoshida tahoratxonalar bo`lgan. Buning uchun oddiy bir xona

ajratilgan. Xonadonlardagi hammomlar haqida so`z yuritishga mavjud manba va ma'lumotlar imkon bermaydi, ularni faqatgina taxmin qilish mumkin, xalos.

**Qabrlarni** diniy binolar guruhiga kiritish mumkin yoki o'ziga xos bino sifatida alohida tadqiq qilish mumkin. Qadim-qadimdan odamning ustixoni muqaddas sanalib, uni “bosib o'tish” gunoh hisoblangan. Shu sababli qabristonlar vujudga kelgan. Odam jasadini dafn etish o'rta paleolitdayoq vujudga kelgan. Dafn etish diniy e'tiqod bilan chambarchas bog'liq. Zardushtiylik, buddaviylik, shamanizm, va umuman islomgacha bo'lgan dinlarda turlicha dafn marosimlari mavjud bo'lgan. Islom dini qabul qilingach Xorazmda ham dafn etish, ya'ni yerga ko'mish an'anasi shakllangan. XVI-XX asr boshlarida dafn etish Xorazm tabiiy sharoitidan kelib chiqib, qabr-lahad chuqur kovlanmagan, yer yuzasidan 40-50 sm atrofida kovlanib, ustiga kichkina kapa (tax 1X2.2m) tiklangan. XVIII asrgacha xom g'isht yoki guvaladan tiklangan, keyinchalik pishiq g'ishtdan qurila boshlangan.

Insonning so'nggi manzili qabrlar hech qanday bezaksiz bo'lgan, zarur hollarda somon suvoq qilingan. Lekin avliyolarning qabrlari, ularning ustiga tiklangan maqbaralar naqshlangan pishiq g'ishtdan ishlangan, koshinlar bilan bezatilgan. Qabrlar odatda sharqdan g'arbga qilib quriladi. Ma'lum bir davr o'tgach qabrlar eskirgan va yer bilan qo'shilib ketgan va o'rniga boshqa qabr barpo etilgan. Islom falsafasiga ko'ra inson tuproqdan paydo bo'lgan va tuproqqa qaytadi. Shuning uchun bo'lsa kerak qabrlar mustahkamligiga unchalik e'tibor berilmagan.

**Tandir** yoki tandirxonalar ham alohida ahamiyat kasb etgan, chunki odamlarning asosiy yeguligi non bo'lgan. Tandirxona ham ichki hovlida, orqa tomonda qurilgan. Odatda shaharliklar nonni novvoyxonalardan olishgan, qishloq ahli 5-10 hovli bir tandir qurishgan (albatta, qo'shnilar orasidagi munosabat yaxshi bo'lsa). Bu haqda shunday rivoyat ham mavjud: “Rivoyat qilishlaricha, Chingizzon har bir qishloqqa hujum qilishdan oldin u yerga ayg'oqchilar yuborib tandirlari haqda so'rар ekan. Agar har bir hovliga alohida tandir bo'lsa, qishloq aholisi qancha bo'lishidan qat'iy nazar 10-15 navkar yuborar ekan. Agar 6-7 hovliga bir tandir bo'lsa maxsus tayyorgarlikdan keyin 100-200 navkar jo'natar ekan.”

**DAVLAT BINOLARI.** Devorlar geografik xususiyatidan kelib chiqib, asosan paxsa loydan va qisman xom g'ishtdan qurilgan. Bundan tashqari gavala, tuproq, kesak, g'olak, yog'och, xodalar ham ishlatalgan. XIX-XX asr boshlarida devor qismlari bo'lган darvozaxonalar pishiq g'ishtdan qurila boshlangan. Har bir shahar mudofaa xususiyatiga qarab to'rtburchak, aylana, ellips shakldagi devorlar bilan o'ralgan.

**Darvozalarning** paydo bo'lishi mudofaa devorlari bilan bir vaqtga to'g'ri keladi. Mil. av. VI-V asrlarga oid Qo'yqirilgan qal'a, Jonbosqal'a, milodiy II-III asrlarga oid Tuproqqal'a yodgorliklarida darvozaxonalar yaxlit saqlanmagan bo'lsada, o'rni qoldiqlari dastlabki darvoza va darvozaxonalar haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Darvozalar o'ziga xos uslubda asosan loydan va xom g'ishtdan bino qilingan. XIX-XX asr boshlarida pishiq g'ishtdan qurilgan. Darvozaxonlarni ikki guruhga bo'lish mumkin: Qal'a darvozaxonalari va saroy darvozaxonlari. Qal'a darvozaxonalri asosan shaharning muhim yo'llari ustida mudofaa inshoatining bir qismi sifatida barpo etilgan.

**Saroylar** davlat binolarining asosiy qismini tashkil etadi. Saroylarning vujudga kelishi ilk davlatchilik bilan bog`liq. Xorazmda mil.av. VII-VI asrlarga oid Ko`zaliqir va Qal'aliqir qal'alari va hukmdorlar qarorgohlari o`rganilgan. Tuproqqal'a (III-IV asrlar)da butun boshli saroy oolib o`rganilgan. Bu qadimgi saroylar qanday ekanligini aniqlashga yordam beradi. O'rta asr saroylari ham qadimiy a'nanalar asosida qurilgan.

Me'morchilikda **DINIY OBIDALAR** muhim o'rin tutadi. O'rta asrlarda ko'plab diniy imoratlar qurilgan. Jumladan: masjidlar, madrasalar, namozgohlar, xonaqohlar, mabaralar va boshqa inshoatlar.

Eng keng tarqalgan diniy obidalar **masjidlar** hisoblanadi. Masjidlar ikki xil uslubda barpo etilgan. Masjidlar asosan aholi zikh joylarda, mahalla markazlarida qurilgan. Xorazmda asosan yopiq holida yoki o'ziga xos ichki hovli shaklida qurilgan. Yopiq masjidlar loydan, xom g'ishtdan, pishiq g'ishtdan va sinchdan keng qilib qurilgan. Devorga zah chiqmasligi uchun "tirnoq" (poydevor) ustidan qamish yoki bo'yra yoyilgan. Ayrim masjidlar poydevoriga xarsang toshlar terib chiqilgan.

Masjidlar nisbatan baland joylarda bino qilingan. Ular hajmi jihatidan har xil bo'lib, to'g'ri to'rtburchak yoki kvadrat shaklida ishlangan. Masjid qurilishidagi o'ziga xos xususiyatlardan biri bu keng, bir xonadan iborat bo'lismasligi uchundir. Bundan tashqari masjidlar ko'p eshikli bo'lgan, sabab kirish-chiqichda tiqilinch bo'lmasligi uchundir. Eshiklar ikki tavaqali qilib mahalliy yog'ochlardan ishlangan va o'yma naqshlar bilan bezatilgan. Derazalar, aniqrog'i darichalar kichik masjidlarda uch tomondan shipga yaqin joydan qo'yilgan va yog'och yoki ganch panjara bilan to'silgan. Katta masjidlarda tomning o'rtasida ikki yoki to'rt joyidan ochiq joy qoldirilgan. Bu masjidning yorug' bo'lishini va havoni tozalash vazifasini bajargan, chunki ko'pchilikning bir joyga to'planishi nafas olishni qiyinlashtirgan.

Masjidlar qurilishida o'ziga xos alohidilik bu - mehroblar o'rnatilishidir. Mehrob - sajdagohni bildiruvchi marmartosh bo'lib qibla tarf burchakka o'rnatilgan. Masjidlar sahniga pishiq g'isht (25X25 sm) to'shalib, uning ustidan bo'yra va kigizgilamlar solingan. Ochiq (yozgi) masjidlarda devor bir tomonda bo'lib, boshqa tomonlar o'ralar bilan ko'tarilib, ayvon qilinadi. Bezatilishi va boshqa jihatlari yopiq masjidlar bilan bir xil. Bundan tashqari masjidlar 3 xil tartibda faoliyat yuritgan. Mahalla (guzar) masjidlari- har kungi namozlar o'qish uchun va jome' (juma) – ko'pchilik juma namozi o'qiydigan masjidlar va jome' masjidlar (Iyd kunlari namoz o'qiladigan) masjidlar. Masjidlarni salobatli ko'rsatadigan narsa bu shubhasiz minoralardir. Masjidning katta-kichikligiga qarab minora ham katta-kichik b-qilib qurilgan. Yuqoridagi masjidlardan tashqari har bir madrasaning o'z qishqi va yozgi masjidlari bo'lgan. Unda toliblar jamoat bo'lib namoz o'qiganlar. Ular ko'proq mahalla masjidlariga o'xshash bo'lgan. Har bir masjid uchun imom, bog'bon, mutavalliy tayin etilgan. Ular masjid va uning jihozlari uchun ma'sul bo'lganlar. Masjid hovlisi gulzor qilinib, doimo ozoda, suv sepilgan holda saqlangan. Masjidlar ma'rifiy maskan ham hisoblanadi. Bolalarni savodlarini ham shu yerda chiqarganlar, ya'ni I-bosqish maktablar masjidlarda tashkil etilgan.

**Minoralar** – o`rta asrlarning eng baland inshoatlari hisoblanadi. Minora bu-arabcha so`z bo`lib, aslida mezona – azon aytildigiga joy ma'nosini bildiradi. Minoralar qurish Or`ta Osiyoda arablar bosqinidan keyin keng tarqalgan. Lekin

islomgacha ham minoralar mavjud bo`lgan. Beruniy “Osiriul boqiya” asarida afrik iylarning minoralari haqida ma’lumot beradi. Minoralar uch xil vazifani bajargan: azon aytish; kuzatuv, nazorat; mo`ljal olish. Islomgacha qurilgan minoralar kuzatuv, nazorat va mo`ljal olish maqsadlarida qurilgan. Shu jihatdan minoralarni davlat binolari (kuzatuv, nazorat), jamoat binolari (mo`ljal olish) va diniy imoratlar sirasiga (azon aytish) kiritish mumkin. Biz qurilishgi va tarqalishi jihatidan so`nggi davrlarga oid bo`lgani va asosan masjid va madrasalar qoshida joylashgani uchun diniy imoratlar guruhiga kiritdik. Minoralar qurilish uslubi jihatidan ancha muarkkab inshoatklar hisoblanadi. Odatda minoralar pishi` g`ishtdan, kam hollarda xom g`ishtdan bunyod etilgan. G`ishtlar kvadrat shklida bo`lib, mavjli yoki oddiy shaklda terilgan. Minora qurilishidan oldin joy strukturasi o`rganilgan. Rivoyatlarga ko`ra minoralar poydevori bo`yi barobar yer ostida joylashgan bo`ladi. Rivoyatlardagidek bo`lmasa ham minoralar asosi yer sathidan 3-5m quyidan boshlangan. Har bir hudud minoralari o`ziga xos shaklda bunyod etilgan. Respublikamizda Buxoro, Surxondaryo viloyatlarida qadimiy minoralar saqlangan. XII asrga oid minora hozirgi Turkmaniston hududidagi Xorazmshohlar poytaxti Qo`hna Urganch shahrida saqlangan. Xivadagi minoralar qurilish uslubi jihatidan Qo`hna Urganch minorasiga o`xshab ketadi. Xiva minoralari o`zining dinamikaviyligi, yuqoriga tomon keskin torayishi, bazalishi bilan boshqa hududlarda minoralardan farq qiladi. Minoralar konussimon shaklda yuqoriga tomon torayib borgan holatda quriladi. Eng yuqorisiga o`ziga xos fonussimon gumbaz ishlangan. Har joy har joyda kichik tuynuklar qo`yilgan bo`lib, shular orqali minora ichiga yo`rug`lik tushgan. Yuqori qismida darchalar bo`lib, ularga ganchkor panjaralar o`rnatilgan. Balandligi va bezalishi turlicha. Ayrimlari koshin bilan bezalgan. Minoralar ichida aylanma zina bo`lib, u orqali yuqoriga chiqilgan.

O`rta asrlar Sharqning Islom olamining eng katta, eng hashamdar va eng go`zal inshoatlari bu oliy ilmgoh- **madrasalardir**. Islom vujudga kelgan birinchi kunlardanoq masjidlar qurila boshlagan. Lekin madrasalar qurilgan vaqni aniq aytish qiyin. Ayrim olimlar dastlabki madrasa Buxoroda X asrda qurilganligini ta’kidlaydilar. XII asrda Qo`hna Urganch ilm-fan markazi bo`lib bir qancha

madrasalar faoliyat yuritgan. Madrasalar asosan poytaxtda va yirik shaharlarda barpo etilgan. Madrasada uch bosqichda tahsil bo`lib, asosan islom falsafasi, fiqh, riyoziyot, tarix, adabiyot, mantiq, tibbiyot va boshqa ilmlar o`rgatilgan. Madrasalar madaniy markaz sifatida g`oyaviy-siyosiy vazifani ham bajargan. Madrasalar, shuningdek boshqa dininy inshoatlar vaqf yerlari hisobidan o`z xarajatlarini qoplagan. “Madrasalar umumiy qurilish loyihasi va qurilishiga ko`ra ajralib turadi. O`rta Osiyo me`morchiligidagi masjid va darsxona peshtoqning ikki qanotida joylashgan”. L. Yu. Mankovskaya madrasalarni tuzilish jihatdan uch guruhgaga ajratadi:

- An'anaviy uzunchoq kompozitsion o`q bo`ylab joylashgan madrasalar;
- Ko`ndalang shaklda joylashganlar;
- Erkin tarzda qurilish maydoni shaklidan kelib chiqqan holda barpo etilgan madrasalar.

**Maqbara** bu- yirik avliyolar, ulamolar, islom dinining peshvolari, xon va amaldorlar, afsonaviy shaxslarning qabrlari ustiga qurilgan inshoat. Islomning dastlabki davrlarida qabr ustiga turli binolar qurish taqiqlangan edi, keyinchalik bu narsaga ruxsat berildi va bunday joylar muqaddas ziyoratgohlarga aylantirildi. Maqbaralar ham geografik hudud, iqlim, islomiy urf-odatlar asosida qurilgan va hududlar bo'yicha farqlar mavjud. Jumladan Xorazm hududidagi maqbaralar bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Lekin o'z navbatida ularda o'ziga xoslik ko'proq va har biri alohidalik kasb etadi. Maqbaralarini quyidagi guruhash mumkini:

1. Bir xonali peshtoqsiz binolar;
2. Bir xonali peshtoq, gumbazli binolar;
3. Ko'p xonali binolar.

Me`morchilikni o`rganish tariximizni yanada to`laqonli ochib berishga xizmat qiladi.

## 2- MAVZU: ANTIK DAVR VA ILK O`RTA ASRLAR

### ME'MORCHILIGI

#### Ma'ruza mashgulotining ta'lif texnologiyasi modeli

<b>O`quv vaqt: 80 minut</b>	<b>Talaba soni: 40-80 gacha</b>
<b>O`quv mashg`ulotining tuzilishi</b> <b>Ma'ruza rejasi</b>	<p>Reja:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Qadimgi Xorazm, Sug`d va Baqtriya me'morchiligi</li> <li>2. Kushonlar me'morchiligi</li> <li>3. Ilk o'rta asrlar me'moriy yodgorliklari. Afrosiyob me'morchiligi</li> <li>4. Me'morchilikda arab xalifaligining ta'siri.</li> </ol>
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi:</i> Talabalarda Qadimgi Xorazm, Sug`d va Baqtriya, Kushonlar me'morchiligi, Ilk o'rta asr yodgorliklari haqida tushuncha hosil qilish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy masalalar bo'yicha tushunchalarni shakllantirish.	<i>O`quv faoliyatining natijalari:</i> Talabalarda Qadimgi va ilk o'rta davri me'morchiligi haqida, shuningdek arab xalifaligi madaniyatining me'morchilikka ta'siri to'g'risida bilim hosil bo'ladi.
<i>Ta'lif usullari:</i>	Kontseptual jadval, "Klaster", Venn diagrammasi, sxemalar, ma'ruza
<i>O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli</i>	Ommaviy
<i>Ta'lif vositalari</i>	Slaydlar, marker, flipchart, jadval
<i>Qayta aloqa usullari va vositalari</i>	Savol –javob

## O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

<b>Ishlash bosqichlari, vaqtি</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O`qituvchining</b>	<b>Talabaning</b>
1- bosqich 1.1. O`quv hujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min). 1.2. O`quv mashg`ulotiga kirish (5min)	Qadimgi va ilk o`rta asrlar inshootlari haqida talabalarning mulohazalari so`raladi. Shu yuzasidan ma'lumotlar beriladi, ma'ruza rejasi yozdiriladi, so`ng ma'ruza boshlanadi.	Tinglashadi. Qadimgi va ilk o`rta asrlar yodgorliklari bo`yicha o`z fikrlarini aytadilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
2-bosqich Asosiy 60 min.	2.1. Qadimgi davr me'morchiligi haqida ma'lumot beriladi va Venn diagrammasi to`ldiriladi.  2.2. Ilk o`rta asrlar inshootlarining qadimgi davrdan faqlari ko`rsatib beriladi.  2.3. Arab xalifaligi me'morchiliginining O'rta Osiyo me'morchiligi ta'siri bo`yicha vizual materiallar taqdim etiladi.	Konspekt yozishadi, tinglashadi, Venn diagrammasi to`ldiriladi. Qadimgi va Ilk o`rta asrlar bo`yicha slayddagi sxemani chizib olishadi. Arab xalifaligining me'morchilikka ta'siri haqidagi sxemani ham chizib olishadi. Mavzu bo`yicha savollar beradilar.
3 -bosqich. Yakuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo`yicha xulosa qilish.  3.2 Talabalarga jadvallarni mukammal to`ldirish taklif etiladi va o`quv mashg`ulotning maqsadiga	Elektron ma'lumotlarni fleshkalariga tushiriladilar.

	erishish darajasi tahlil qilinadi 3.3 Mavzu yuzasidan o`quv vazifasi beriladi. Amaliy mashg`ulotga tayyorlanish.	
--	---	--

## **2-mavzu: Antik davr va ilk o`rta asrlar me'morchiligi**

Reja:

1. Qadimgi Xorazm, Sug'd va Baqtriya me'morchiligi
2. Kushonlar me'morchiligi
3. Ilk o'rta asrlar me'moriy yodgorliklari. Afrosiyob me'morchiligi
4. Me'morchilikda arab xalifaligining ta'siri.

### **1. Qadimgi Xorazm, So`g'd va Baqtriya me'morchiligi**

O'zbekiston hududida er.avv. V-II minginchi yillardayoq juda ko'plab vohalarda katta-katta jamoalar tashkil topgan. Ular er.avv. III-II minginchi yillarda misdan foydalandilar. Vohalarda o'n ming kishilik katta-katta shaharlar paydo bo'ladi. Bu shaharlarda yirik qo'rg'onlar, qal'a, saroylar qurila boshlandi. Xullas III-II ming yilliklardayoq O'zbekiston hududlarida shaharsozlik, bular asosida me'morchilik, ular bilan birga amaliy san'at rivojlandi, devoriy rangtasvir shakllana boshladi. Er.avv. II-I ming yiliklarda qadimgi Sug'd, Xorazm san'at va madaniyati rivojlangan o'lkalardan biriga aylandi. Er.avv. I-minginchi yillarning boshlarida Surxon va Farg'ona o'lkalarida ham shaharlar paydo bo'la boshladi.

Er.avv. I-minginchi yillarda Zardo'shtiylik dinining me'moriy obidalari ibodatxonalari qurila boshlandi. Bu O'rta Osiyoda me'morchilikni rivojlanishiga yana bir zamin bo'ldi. Binolarni ichki devorlariga, shift va pollariga turli mavzudagi syujetli rasmlar ishlandi. Ayrim bino intererlarini haykallar bilan bezatilganligi kuzatiladi.

Er.avv. VI-IV asrlardagi me'morchilik san'ati bo'yicha Xorazmda bunyod etilgan Ko'zaliqir, Qal'aliqir me'morchilik ansamblari shu davrni baholash imkonini beradi. O'zbekiston me'morchiligi tarixi o'rganilganda uni juda qadimdan er.avv.

VIII-IV asrlardan boshlanib, u quldorlik jamiyati davridan rivojlanishi, qadimgi Sug'd, Xorazm san'ati va madaniyati, O'rta osiyoliklarni diniy tushunchalari, zardushtiylik dini, uni tasviriy san'atni rivojlanishidagi ahamiyati, me'morchilikni rivojlanishi va amaliy san'atni takomillashuvi ancha yuqori saviyada bo'lganligi kuzatiladi. Xorazm bo'y lab o'tkazilgan arxeologik izlanishlar natijasida Guldursun, Ko'nuaz, Filqal'a, Bozorqal'a, Ayozqal'a, Tuproqqa'l'a, Jonbosqal'a, Qo'yqirilgan qal'a, To'qqal'a, Govurqal'a kabi yuzlab qadimiy shaharlar topildiki, ulardagi me'morchilik, amaliy va haykaltaroshlik san'ati beqiyos rivojlanganligidan dalolat beradi. Qadimgi Xorazm san'ati va me'morchiligi tarixi haqida «Kaltaminor», «Tozabog'yob», «Suyorg'on», «Amirobod», «Jetisor», «Kanguy», Amudaryo xazinasi madaniyati va «Beshtepa», «Qoratepa», «Arfa chaluvchi», «Yo'lbars», «Qirg'ovul» «Ot tuyog'i», «Yo'lbars panjası», «Kohin haykali», «Odam tasviri», «Qorovul haykali», «Qizil bosh», «Vzamir qallig'i», rangli naqshlar «Rangli byust» yoki «CHirikrabot», «Qo'yqirilgan kal'a», «Ayozqal'a», «Tuproqqa'l'a», «Teshikkal'a» kabi badiiy-madaniy yodgorliklari juda katta ilmiy ma'lumotlar beradi<sup>1</sup>.

Qo'rg'on qal'aning ichki devorlari devoriy rasmlar, releflar va dumaloq haykallar bilan bezatilgan. Qal'a devorlari qalin va baland bo'lган holda soqchilar turadigan minoralari yaqin 30 metrgacha baland qilib qurilgan. Qo'rg'onlar ichiga saroylar, qabulxona, turarjoy binolari ikki qavatli qilib qurilgan. Binolarni ichki inter'erlari turli buyumlar, ustunlar, mehroblar, haykallar va devoriy rasmlar bilan serhasham qilib bezatilgan. Er.avv. VI-IV asrlarga oid Xorazmnning Qa'laliqir saroyining me'morchilik kompleksi o'sha davr me'morchilik va amaliy san'atini yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Bino xonalari bir-biriga moslangan, ustunlar yog'ochdan ishlangan bo'lib, burgut boshli kifonlar bilan bezatilgan. Ustunlar ostiga toshdan takkursilar qo'yilgan.

O'z san'ati va madaniyatini mislsiz rivojlantirib kelayotgan O'rta Osiyoni er.avv. IV asrda Aleksandr Makedonskiy tomonidan bosib olladi va butun badiiy-madaniy boyliklarni yer bilan yakson qiladi. shahar-qal'alarga o't qo'yadi, badiiy

<sup>1</sup> S.Tolstov. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. T. 1964 y.

buyumlar talab ketiladi. O’rta osiyoliklarning buyuk va muqaddas kitobi «Avesto»ni ham yoqib yuboradi.

O’rta Osiyoni yunonlar bosib olishi natijasida yunon madaniyati asosida antik badiiy madaniyat vujudga keladi. O’rta Osiyoning shaharsozlik san’ati va me’morchilik san’atida, shuningdek amaliy san’atda ellistik san’at uslublarini qo’llanila boshlandi. Binolarni ichki bezaklarida, binolarni ustun va devoriy bezaglarida ham yunon san’ati ta’siri sezila boshlandi.

Er.avv. IV asrlardan boshlab qurilgan me’morchilik obidalarida Ahamoniylar davri me’morchiligi bilan uyg’unlashgan holda yunon-ellistik san’at an’analari o’z ifodasini topadi. Ayniqsa, me’morchilikni bezatilishida yunon-ellin san’atidan keng foydalanadilar. Ustunlar yunon-klassik shakllarida ishlanadi. Ularning kapitellari toshdan ishlanadi. Saroylarning xonalari yunon-ellin badiiy bezaklari, relief haykalar bilan bezatilgan. Bezaklar ichida she’r niqobi, tomni bezab turuvchi polmettali antisfinkslari ishlatiladi. Bunday yunon me’morchiligi san’atiga oid qurilmalar Grek-Baqtriya, Parfiya va Kushan podsholiklari davrida ham kuzatiladi. Yunon tarixchilarining bergen ma’lumotlariga ko’ra, Grek-Baqtriyani ming shahri bor o’lka deb ta’riflashgan. Bu ta’rif O’rta Osiyoda yunonlar davrida ko’plab shaharlar bunyod etilganligini, unda yunon-elin san’ati rivoj topganligini aks ettiradi.

### **3. Ilk o’rta asrlar me’moriy yodgorliklari. Afrosiyob me’morchiligi**

Afrosiyob – Samarqandning qadimiy shahar o’rnii. Afrosiyob er.avv. VIII-VII asrlarda shakllangan va Sug’diyonaning markaziy shaharlaridan biri bo’lgan. Afrosiyob xalq orasida mashhur, afsonaviy shaxs – podshoh, xalq qahramoni bo’lib, shahar uning nomiga qo’yilgan.

Afrosiyob shahri – Firdavsiyning Shohnoma asarida turonlik qahramon, sarkarda sifatida tavsirlanadi. Afrosiyob qadimdan dunyoga mashhur shahar bo’lib, uning san’ati, madaniyati, me’morchiligi beqiyos rivoj topgan, g’oyat boy, xalqi madaniyatli, yuksak ma’naviyatli holda tanilgan.

Arxeologik tadqiqotlar bergen ma’lumotga ko’ra Afrosiyob – er.avv. VIII-VII asrlarda vujudga kelgan va Sug’diyonaning eng go’zal, ko’rkam, boy, san’ati va

madaniyati yuksak darajadagi – markaziy shahriga aylangan. Shaharni er.avv. 329 yili Makedonskiy zabit etadi va vayronaga aylantiradi. Yunonlar bu shaharni Marokanda deb atashadi.

Afrosiyob qayta tiklanadi (Kushonlar davri). 712 Afrosiyobni arablar lashkarboshisi Qutayba katta qo'shin bilan bosib oladi. Shaharga o't qo'yadi. Madaniy yodgorliklarni qilichdan o'tkazib, yer bilan yakson qiladi.

Afrosiyob IX asrdagina o'z qaddini qayta roslaydi. Bu davrda mamlakatni Somoniylar boshqaradi. Somoniylarni poytaxti Buxoro bo'lib, Afrosiyob ham somoniylarning asosiy va markaziy shaharlaridan biriga aylanadi. Shaharda katta me'morchilik qurilishlari, savdo-sotiq, san'at va madaniyat yana rivoj topadi.

Ammo 1220-yili Chingizzon boshchiligidagi behisob mo'g'ul qo'shinchilari O'zbekiston hududlariga bostirib keladi. Afrosiyobni Chingizzon talab, o't qo'yadi. Butun madaniy boyliklar vaxshiyona yo'q qilinadi. Afrosiyobni suv bilan ta'minlovchi Kumush ariq buzib tashlanadi suvsiz qolgan Afrosiyob qayta tiklanmaydi.

Afrosiyob arxeologiyasi kuzatishlari shuni ko'rsatadiki, shahar san'ati, madaniyati va me'morchiligi er.avv. VIII-V asrlarda, Sug'dlar davri eramizning I-II asrlarida (Kushon davri), V-VII asrlarda (ixshidlar davri), IX-X asrlarda (Somoniylar davrida) g'oyat yuksak darajada rivojlandi. Shaharni yunonlar bosib olgandan so'ng, uni san'ati va me'morchiligi tez orada qayta tiklanib, rivojiana boshlaydi. Bunga qo'shimcha holda shahar qurilishi va amaliy san'atida yunon-elin san'ati kuchayib boradi. Shahar Makedonskiydan so'ng, o'zining tasviriy, amaliy, me'morchilik san'ati rivoji bilan yana sharq olamida katta shaharlardan biri bo'lib qoldi.

Eramizni I-II asrlarida kushonlar madaniyati va me'morchiligi taraqqiy etdi. Bu davrda tasviriy san'atni haykaltaroshlik turi ham rivojlanadi. Bu yerdan «Mitrasiyavush», «Dionis», «Mevali ma'buda», «Qanotli ma'buda» kabi terrekotalar topilishi Afrosiyob haykaltaroshligidan darak beradi.

Afrosiyob san'atida devoriy rasmlar alohida e'tiborda bo'lib, ular eramizning V-VII asrlari tasviriy san'ati taraqqiyotini ochib beradi. Afrosiyob saroyi devorlaridagi turli tema va syujetlarda rasmlar ishlangan. Rasmlarda to'y

marosimlari, ov manzaralari, daryoda cho'milish kompozitsiyalari yuksak mahorat bilan ishlangan. Shuningdek, devoriy rasmlarda fillar, otlar, kuyov-shox, kelin-malika, kanizaklar, sug'd tilidagi yozuvlar ifodalangan. Rasmlardagi uch ayoldan birining tasviri yaxshi saqlangan. Ayol qizil kuylakda, sariq lozimda, oq kulrang ro'mol, oyog'ida qora etik tasvirlangan. Devoriy kompozitsiyalarda o'sha davrning qurol-aslahalari, qushlar, turli zeb-ziynatlar, amaldorlik liboslari, og'zini berkitib olgan xizmatkorlar va boshqa turli toifadagi kishilar ifodalangan.

Mehmonxona devorlaridagi rasmlarda qabul marosimi, unda dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan elchilar tasvirlangan. Qabulxona rasmlari shunchalik aniq ishlanganki, ular qaysi mamlakat elchisi ekanligini anglab olish mumkin. Kompozitsiyada elchilar, ular ko'tarib olgan sovg'alar, itlar, qushlar, qurol-aslahalar juda mohirlik bilan tasvirga olingan. Yana bir rasmida dengizda baliq, toshbaqa, o'rdaklar suzib yuribdi. Qirg'oqda bolalar, ayollar, otdan tushib turgan erkak kishi tasvirlangan. Yana bir rasmida to'qayzorda yo'lbars ovi tasvirlangan. Yo'lbarsga nayza urayotgan g'olib yaxshi tasvirlangan. Bu yerda qayiqda suzish ifodalangan bo'lib, kishilarning hammasi yaxshi kiyingan. Afrosiyob devoriy rasmlari qavat-qavat qilib ishlangan bo'lib, ular turli davrlarga mansubligini anglash qiyin emas.

Xullas, Afrosiyob tasviriy san'atining mazmun-mohiyatini ifodalovchi devoriy rasmlar o'zining tematikasi, kompozitsion yechimi, syujetlarni to'laligi, detalarni ko'pligi, ranglarni uyg'unligi bilan o'ziga xos, bir butun, tugallangan va yuksak mahorat bilan ishlangan san'at asarlaridir. Bularning barchasi rassomlarni ancha yuqori malakali ekanligi va ma'lum bir maktabdan o'tganligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Saroyda qabul xonasi, mehmonxona, turar joy xonalari va boshqa turli tadbirlarga mo'ljallangan xonalar bo'lganligi ko'rsatiladi. SHaharda ibodatxona, ishratxona va turar joy binolari bo'lgan. Afrosiyob to'la shahar tipidagi ko'chalar, binolar ham bir-biriga uyg'unlashtirilgan holda qo'rilgan. Bundan ko'rinish turibdiki, shahar maxsus reja asosida qurilgan. Afrosiyobda 30 dan ortiq binolar aniqlangan. Binolarni har 3-4 tasi bir ansamblga birlashgan. Shahar me'morchiligi: Qadimgi Hisor, Qadimgi qo'rg'on, Qo'hna Hisordan iborat bo'lgan 3 qismga bo'lib

o'rganiladi. Shahar markazida Ixshid saroyi joylashgan. Shahar avval bir qavatli binolar bilan, so'ngra ikki qavatli binolar bilan tashkil etilgan.

Afrosiyob me'morchiliginin asosiy materiali tosh, g'isht, yog'och bo'lган. Afrosiyob qalin devor bilan o'ralgan, devorni balandligi 8-10 metrn bo'lib, har 200 metrda tashqarini kuzatish balkonlari bo'lган. Qal'ani 6 tomonida darvoza bo'lib, devor tashqarisida lahm kovlanib, uni suv bilan to'ldirilgan. Shaharga ko'tarma ariq «Kumush ariq» qurilib, shu ariq orqali suv olib kelingan.

Afrosiyob – g'oyat katta va bosh arxeologik materiallarga ega bo'lган manzilgohdir. Afrosiyobni va Samarqand viloyatini arxeologik jihatdan o'rganish uchun V.Bertold va V.Vyatkin boshchiligidagi 1904-17-yillarda va A.Yakubovskiy rahbarligida, 1966-yildan Ya.G'ulomovlar rahbarligida maxsus ekspeditsiyalar muntazam holda tadqiqot ishlarini olib bordilar. Afrosiyob manzilgohini arxeologik jihatdan o'rganish ishida birinchi bo'lib 1913-yili V.Vyatkin Afrosiyob devoriy rasmlarini o'rganib chiqadi. 1965-yili I.Axrarov, J.Mirzaaxmedov, Ya.G'ulomov, V. Shishkinlar Afrosiyob arxeologiyasi bilan shug'ullanib, uning san'ati va madaniyati, me'morchiligiga oid yangidan-yangi materiallar topadilar. Bu tadqiqotda san'atshunos olim L.Rempel ham ishtirok etadi. U san'at asarlarini tadqiq etishda katta xizmat qiladi.

#### **4. Me'morchilikda arab xalifaligining ta'siri**

Arab xalifaligi davrida O'rta Osiyo g'oyat og'ir ahvolda qoladi. Chunki, bu davrda xalq boshiga tushgan soliqlar ortib boradi. Xalqni majburan islom diniga kiritish bilan birga ularni mol-mulkini yarmini arab qo'shinlariga yoki xalifalik ixtiyoriga o'tkazilar edi. shuningdek, aholi jon solig'i, yer solig'i, zakot va boshqa soliqlar to'laydigan bo'ldilar.

Arablar ko'zga ko'ringan binolarga o't qo'ydilar, chorva mollarini, qo'ylarni talab ketdilar, ekinzor, daraxtzorlarni yoqib yuborildi. talonchilikdan chiqqan nochor aholiga soliqlar yog'dirib yuborildi. O'rta Osiyoliklarni yaqin 1000 yillik san'ati, madaniyati va me'morchiligi yer bilan yakson etildi. Arablar bu sohada qattik isloh o'tkazdilar. Bu islohg'a ko'ra faqat masjid, madrasa, turar joy qurishga ruxsat etildi.

Tasviriy san'atni portret, anamalistik janrlari, shuningdek, haykaltaroshlik qat'ian man' etildi. Faqat amaliy san'at me'morchilik bilan rivojiana boshladi. Me'morchilikda ham islom-arab uslubi qo'llaniladigan bo'ldi. Masjid va madrasalar qurildi. Ular asosan xom va pishtgan g'ishtdan qurildi. Masjid va madrasalar bezatilishida asosan naqsh va o'ymakorlik san'atidan foydalanildi. Binolar gumbazli qilib qurildi. Maqbaralar qurish ham odat tusiga kirdi.

VIII-IX asrlarda Buxoroda va Afrosiyobda badiiy kulolchilik rivojlandi. XII-XIII asrlarda yirik shaharlarda chilangarlik-misgarlik rivoj topdi. Binolarni bezatishda bo'rtma naqshlar, arab alifbosida so'zlardan foydalanildi. IX-X asrlarda grix naqqoshligiga e'tibor kuchaydi. IX-X asrda Termizshoh saroyi, Qirqqiz saroyi, Narpayda Arab ota maqbarasi, Buxoroda Mirsaid Bahrom maqbarasi, shuningdek, Sulton Saodat, Malik Karvon ansambllari, Samarcand (Afrosiyobda), Buxoro, Xorazm, Farg'onada ko'plab masjidlar va madrasalar qurildi.

X asrgacha saroylar shahar tashqarisida qurilgan bo'lsa, keyinchalik saroylar shahar ichkarisida quriladigan bo'ldi. Samarcand, Buxoro, Urganch, Termez shaharlari hunarmandchilikni asosiy markazlari bo'ldi. Bu shaharlarda qog'oz, kulolchilik, shishasozlik, yog'och o'ymakorligi rivojlandi. Monumental me'morchilikka katta e'tibor berildi.

Arab xalifaligi hukmronlik qilgan VIII-X asrlarda tasviriy san'atni rivojlanishi ancha sekinlik bilan bordi. Portret, anamalistik janrlar va haykaltaroshlik mutloq rivoj topmadi. Arab xalifaligidan O'rta Osiyo chiqib ketgan bo'lsada, islom dinini ta'siri o'z mavqeini saqlab qoldi. Shunga ko'ra o'rta asrni XV-asrlarigacha Amir Temur davrigacha O'rta Osiyodagi san'at yaxshi rivojiana olmadi. Faqat me'morchilik va amaliy san'at rivojlandi.

### 3-MAVZU: O`RTA ASRLAR ME'MORCHILIGI

#### Ma'ruza mashgulotining ta'lim texnologiyasi modeli

<b>O`quv vaqt: 80 minut</b>	<b>Talaba soni: 40-80 gacha</b>
<b>O`quv mashg`ulotining tuzilishi</b> <b>Ma'ruza rejasi</b>	1. IX-XIII asr boshlari me'morchiligi 2. Amir Temur va Temuriylar davrida qurilish ishlari 3. XVI-XVIII asrlarda me'morchilik 4. O`rta Osiyoda xonliklar davri me'morchiligi. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonligi yodgorliklari
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarga o`rta asrlar me'morchiligi bo'yicha ma'lumotlar berish</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>  Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy masalalar bo'yicha tushunchalarini shakllantirish.	<i>O`quv faoliyatining natijalari:</i>  Talabalarga IX-XIII asrlar, Amir Temur va Temutiylar, XVI-XVIII asrlar va xonliklar davri me'morchiligi to`g`risida tushuncha berish. Talabalar asosiy ma'lumotlarni konspektlashtiradilar.
<i>Ta'lim usullari:</i>	“Klaster”, Kontseptual jadval, ma'ruza
<i>O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli</i>	Ommaviy
<i>Ta'lim vositalari</i>	Slaydlar, marker, flipchart, jadval
<i>Qayta aloqa usullari va vositalari</i>	Savol-javob

## O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchining	Talabaning
1- bosqich  1.1. O`quv hujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min).  1.2 O`quv mashg`ulotiga kirish (10min).	1.2 Mavzuning rejasi yozdiriladi va talabalar bilan birgalikda o`rta asrlar me`morchilagini izohlovchi klaster tuziladi va ma`ruza boshlanadi.	Tinglashadi. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar, o`rta asr me`morchiligi xususiyatlarini klasterga kiritadilar.
2- bosqich  Asosiy 60 min.	2.1. Ma`ruzada chizilgan klasterga asoslanib ta`riflar beriladi.  2.2. O`rta asr me`morchiligi xususidagi bahslarga aniqlik kiritiladi.  2.3. Xonliklar davri me`morchiligi haqida ma'lumotlar keltiriladi.	Konspekt yozishadi, tinglashadi, mavzu bo`yicha savollar beradilar.
3 - bosqich.  Yakuniy natijalar 5 min.	3.1 Mavzu bo`yicha xulosa qilish va o`quv mashg`ulotning maqsadiga erishish darajasi tahlil qilinadi	O`rganilgan mavzu bo`yicha olgan ma'lumotlarni umumlashtirib savol beradilar.

	3.2 Mavzu yuzasidan o`quv vazifasi beriladi. Amaliy mashg`ulotga tayyorlanish	
--	---	--

### **3-MAVZU: O`RTA ASRLAR ME`MORCHILIGI**

Reja:

1. IX-XIII asr boshlari me'morchiligi
2. Amir Temur va Temuriylar davrida qurilish ishlari
3. XVI-XVIII asrlarda me'morchilik
4. O`rta Osiyoda xonliklar davri me'morchiligi. Buxoro, Xiva va Qo`qon xonligi yodgorliklari

#### **1.IX-XIII asr boshlari me'morchiligi**

VIII-asrlarda arablar tomonidan bosib olingan O`rta Osiyo VIII-IX asrlarda ham turli amirliklarga va davlatlarga bo'lingan holda xiroj to'lab turardi. Ammo xalifalik zaiflashib mahalliy hukmdorlar Markaziy hokimiyat boshqaruvini asta-sekin o'z qo'llariga olmoqda edilar. Bunga eng avval Toxiriylar, keyinroq Somoniylar erishdilar. IX-asrga kelib Somoniylar butun Movarounnahrni, X-asrlarda butun O`rta Osiyonini egallab oldi. IX-XI asrlarda Movarounnahr, ayniqsa, uning vodiysi va Xorazm o'sha davrning eng rivojlangan o'lkasiga aylandi. Buxoro, Termiz, Shosh, Farg'ona, Samarqand qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikda, savdo-sotiqlida mashhur bo'ldi.

Samarqand o'zining sifatlari qog'oz, SHosh o'zining ko'nchiligi bilan, Farg'ona o'zining mis, temir, qo'rg'oshin, kumush kabi yer osti boyliklari bilan mashhur bo'ldi.

Somoniylar sulolasi O`rta Osiyoda «Somoniylar davlati»ni tuzib, bu davlatni 875-999 yilgacha boshqarib keladilar. Somoniylar davlati arab xalifaligini tugashi bilan o'z hukmronligini O`rta Osiyoda boshlaydi. Uni poytaxti Buxoro, unga qaraydigan Samarqand, Nishopur, Marv, Urganch, Xeva, Balx, G'azna kabi shaharlar edi. Unga Seyiston, Jurjon, Resht, CHogonyon, Iefijob, Garchiston, Tabariston

(Mozandaron)lar xam tobe bulgan. Yer va sug'orish inshootlari davlat qo'lida bo'lgan. Uning davlatni boshqarishi markazlashgan siyosat bo'lib, viloyatlar markazga, tuman-qishloqlar viloyatga bo'ysunardi. Bu davrda xalqni ahvoli og'irlashadi. Xalq qo'zg'olonlari boshlanib ketadi.

913 yili Tabaristonda, 930 yili Buxoroda, 944 yili Xorazmda katta-katta qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Mahalliy hukumdor va feodallar ham somoniylarga qarshi chiqa boshladilar. X asrni oxirida feudal tarqoqlik kuchayib ketdi. Mamlakatni chetki o'lkalari bo'linib ketdi. 999 yilga kelib Turklar Buxoroni oladilar va Somoniylar davlatiga xotima beradilar.

Qishloq xo'jaligi, chorvachilik rivojlandi. Savdo-sotiqlig avjiga chiqdi. Buxorodagi kutubxonalar dong taratdi. Somoniylar davrida ilm-fanning buyuk allomalari Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Rudakiy, Daqiqiy va Firdavsiylar yetishib chiqdilar. Bu davrda Somoniylar Xazariya, Eron, Bulg'or, Rus, Xitoylar bilan keng ko'lamda savdo-sotiqni yo'lga qo'yildi. Buxoro islom dinining nufuzli markaziga aylandi. Shaharlar obod etildi. Ismoiliylar o'zlariga alohida diniy oqim («SHia» oqimi asosida) yaratdilar.

Somoniylar davrida me'morchilik san'atiga katta e'tibor berildi. Me'morchilikka pishiq g'ishtdan foydalanildi. Somoniylar ko'plab masjid, madrasa, maqbaralar qurdirdi. Ark-qal'alar bunyod etdi.

Somoniylar davrida mamlakat madaniy jihatdan yaxshi rivojlandi. Ko'plab shaharlarda masjid va madrasalar qurildi. Ilm-fan, me'morchilik, naqqoshlik, hunarmandchilik, kulolchilik taraqqiy etdi.

X asrda qurilgan **Ismoil Somoniy maqbarasi** Buxorodagi eng qadimiy va chiroyli yodgorliklardan biridir. U hozirgi paytda ham xuddi 1000 yil ilgarigidek chiroyli ko'rinishga ega. Somoniylar asli fors bo'lgan birinchi tojik hukmdorlaridir (eramizning 875-999 yillari). Ular poytaxti Buxoro bo'lgan buyuk davlatni barpo etishgan. O'sha davr qurilish, san'at turlari, matematika, geometriya, fizika singari aniq fanlarning yuksak darajada rivojlanishi bilan xarakterlanadi.

**Buxoro arki** (Buxoro, 9-12 — arslar) — shaharning qadimiy qal'asi. Ark qal'asi yuz yillar davomida Buxoro hukmdorlarining rasmiy yashash joyi bo'lgan. U balandligi

16-20 metr bo'lgan sun'iy tepalikda qurilgan. Qal'a maydoni qariyb 4 hektar. Milod boshlarida qurila boshlanib, Somoniylar davri (9-10-asrlar) da ham Ark qayta qurilgan, asosan hozirgi ko'rinishi saqlanibshayboniyalar sulolasiga davrida shakllangan. Odamlar ko'pincha uni «shahar ichida shahar» deb atashgan, chunki unda odatdagi shaharning hamma narsalari: ko'chalar, tor ko'chalar, saroy, masjidlar, ustaxonalar bor bo'lgan.

IX-X asrlarga oid boshqa maqbaralar orasida Tim qishlog'idagi Arab Ota, Karmanadagi Mir Said Bahrom va Uzundagi Ostona Bobo maqbaralari mashhurdir. Eski Termizdagi IX asrga oid ulkan Qirqqiz inshooti to'laligicha xom g'ishtdan qurilgan. Uning burchaklari burjlar bilan mustahkamlangan. Saroy shaklidagi ushbu to'rtburchak inshoot tomonlarining uzunligi 50 metrdan oshadi.

XI-XII asrlarda minoralar qurish keng ommalashadi. Buxoroda qoraxoniylar hukmronligi davrida jome' masjidining yonida **Minorayi kalon** («Katta minora») barpo qilindi. Minoraning balandligi 45 metrdan oshadi. Unda minoraning qurilgan sanasi 1127-yil ekanligi haqidagi yozuv saqlanib qolgan. Vobkent (Buxoro vohasi) va Jarqo'rg'on (Surxon vodiysi) minoralari XII asrda tiklangan.

XI asrda Buxoro va Samarqand o'rtasidagi yo'l ustida Roboti malik karvonsaroyi barpo qilingan. Uning darvozasining baland peshtoqi bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan. Karvonsaroy o'rta asrlarda pishiq g'ishtdan qurilgan qudratli devor bilan mustahkamlangan. Cho'llarda joylashgan karvonsaroylar mudofaa devorlariga ehtiyoj sezgan.

O'rta asrlarda karvon yo'llarida sardobalar - yopiq gumbazli bino - hovuzlar barpo qilingan. Ular quyidagi qismidan boshlab pishiq g'ishtdan ko'tarilib, usti gumbaz bilan qoplangan. Sardobaning ostki sahni ham pishiq g'isht bilan qoplangan. Bunday hovuzlar erigan qor va yomg'ir suvlaridan to'lgan. Hakim at-Termiziy maqbarasi ham XII asrga oid. Bino devorining ichki tarafiga ganch o'ymakorligi bilan hashamatli bezalgan.

## **2.Amir Temur va Temuriylar davrida qurilish ishlari**

XIV asrning 70-yillaridan mo'g'ullar hukmronligiga barham berildi. O'rta Osiyo taxtini Amir Temur egalladi. Amir Temur o'z faoliyatini boshlashidanoq o'z xalqini mehnat va shijoatga chorladi. Bu xalq hunarmandchiligin, san'atini-madaniyatini va me'morchilik ravnaqiga asos bo'ldi. Mustaqillik mamlakatda dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik madaniyati ravnaqiga olib keldi. O'rta Osiyo Amir Temur davrida go'yo yangitdan tug'ildi va qayta uyg'ondi. Bunda nafaqat san'at va me'morchilik, bu o'lka ilm-fan, madaniyat, ma'naviyat o'lkasiga aylandi.

1370-yildan O'rta Osiyoda mo'g'ullar hukmronligi tugatilib, uni o'rniga O'rta Osiyo xalqlari mustaqilligini ifoda etuvchi Amir Temur imperiyasini asosi bo'lmish Movarounnahr davlati barpo etildi. Bu davlatni asoschisi SHahrisabzlik, O'rta Osiyo zodagonlari avlodidan bo'lmish, Barlos urug'idan kelib chiqqan - Temurbek Tarag'ay Muhammad Bahodir o'g'li Barlos edi.

Temurbek 1379 yili Samarqand amiri Xusayn bilan bo'lgan Balxdagi jangda Xusaynni yengib, butun Movarounnahr hukmdorlarini o'z qo'liga oladi. Amir Temur Movarounnahrning sobiq hukmdorlaridan biri bo'lgan Qozag'onning qizi – Saroymulk xonim (Bibixonim)ga uylanadi. Buning munosabati bilan Amir Temurga "Kuragoniy", ya'ni "xonning kuyovi" degan nom beriladi.

Amir Temur Kuragoniy 1370 yil 11 apreldan butun Movarounnahr hukmdori deb e'lon qilinadi. Amir Temur 1370 yildan 1405 yilgacha Movarounnahr mamlakatiga 35 yil hukmronlik qiladi. Bu davrda eng avval mamlakatda yakka hokimlik siyosatini o'rnatib, mamlakat chegaralarini daxlsizligini ta'minlaydi. So'ngra mamlakati sarhadlarini Eron, Iroq, Turkiya, Misr, Kavkaz, Hindiston, Suriya, Oltin O'rda, Rossiya mamlakatlari hisobiga kengaytirib, Sharqda eng ulkan, qudratli imperiyasini tashkil etadi.

Amir Temur o'ziga bo'ysundirilgan mamlakatlarga o'z mustaqilligini saqlab qolgan holda, o'lpon to'lab turish imkoniyatini beradi. Shu boisdan Amir Temur bosib olgan mamlakatlar uzoq yillik mo'g'ul zulmidan ozod bo'lgan holda shu ozodlik evazigagina hiroj-o'lpon to'lardilar. Shunga ko'ra, Amir Temur siyosati va

uni rahnamoligi tufayli ko'plab xalqlar uni qo'llab-quvvatladilar. Ammo qaysi bir mamlakat xoinlik qilsa ularni qattiq jazolaydi. Ayrimlarini gunohidan o'tar ham edi. To'xtamish bir necha bor xoinlik qiladi, lekin u tiz cho'kib, kechirim so'raganda uni avf etadi. Mavarounnahrda esa Temur feodal tarqoqlikka, feodallar o'rtasidagi o'zaro nizolarga, o'zboshimchaliklarga qattiq qo'lllik bilan chek qo'yadi. Amirlarni mamlakat bo'yicha yagona qonun asosida ishlashga majbur qiladi. SHunga ko'ra, xalq boshiga solinadigan soliqlar ham cheklangan edi.

Amir Temur davrida Mavarounnahr poytaxti Samarqand bo'lib, u dunyoda ulkan nufuzga ega bo'lган va jahonga sayqal bera olgan shaharga aylandi. Bu davrda mamlakat iqtisodiy, siyosiy va davlatchilik madaniyati sohasida SHarqning boy va qudratli davlatiga aylandi. Mamlakatda xalq xo'jaligi, savdo-sotiq beqiyos rivoj topdi. Buyuk Ipak yo'li qayta tiklandi. Amir Temur ana shu Ipak yo'lining tinchligini o'z himoyasiga oldi. Shunga ko'ra, mamlakat nafaqat iqtisodiy jihatdan rivojlanib qolmay, san'at, madaniyat, do'stlik aloqalari beqiyos rivoj topdi.

Amir Temur o'z mamlakati yerlarida ko'plab me'moriy inshootlar, karvon yo'llarida sardobalar, o'zi bosib olgan qaysi bir davlat bo'lmasin, u xalqni ulug' allomalariga maqbaralar qurdiradi.

Amir Temur vafotidan keyin mamlakatda uning o'g'illari Miron shox, SHohruh mirzolar, keyinchalik uning nabiralari Ulug'bek va boshqalar hukmronlik qildilar, bu hukmronlik 1507 yilgacha davom etadi. Amir Temur asos solgan temuriylar imperiyasi uning nabiralari o'rtasida o'zaro urush janjallar natijasida iqtisodiy va siyosiy

Ulug'bek davri o'zining ilmu-fanni taraqqiyoti bilan o'rta asrlar dunyosida Samarqand shuhrat qozondi. Ulug'bek Samarqandda dunyoviy fanlarni o'rganuvchi, unda ilmiy-tadqiqotlar olib boruvchi fanlar akademiyasini tashkil etadi. Bu akademiyada matematika, astronomiya, tabiatshunoslik, geografiya, til-adabiyot, tarix, falsafa, me'morchilik, san'at, madaniyatshunoslik kabi fanlar o'rganildi. Bu ilm dargohida jahonga mashxur olimu-ulamolar ilmiy izlanishlar olib borishadi. Bo'lajak allomalarga Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi, Muhammad Birjoni va Ulug'beklar dars bergenlar. Bu yerda matematika, astronomiya,

tabiatshuroslik, meditsina, kimyo, tarix, san'at, falsafa fanlari bo'yicha XV-asrgacha bo'lgan, yaratilgan ilmiy manbalar qadimgi yunondan boshlab, Forobiy, Farg'oniy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sinolarning ilmiy-meroslari o'rganildi. Yangi tadqiqodlar xulosalanadi. Ulug'bek o'zining uzoq yillik tadqiqodlari asosida "Ziji Kuragoniy" asarini yozadi. Bu asar butun dunyo astronomlarini darsliklariga aylanib, bugungi kungacha bu asar jahonning o'nlab asosiy tillariga tarjima qilingan. G'iyossiddin Koshiy "O'nli kasrlar arifmetikasi" nazariyasini ishlab chiqadi.

"Ziji Kuragoniy" asarida butun koinot qonunlari va sirlarini ilmiy asosda taxlil qilib beradi. Ulug'bek observatoriyasi - rasadxonasi XV-asrning nodir namunasi bo'lib, uni 1428-29 yillarda qurilgan. Rasadxona tsilindir shaklida 3 qavatli, 30,4 metr balandlikda qurilib, binoning asosiy radiusi bo'yicha 40,2 metr gigant sekstantga ega bo'lgan. Rasadxona tashqi va ichki bezalishi jihatidan me'moriy san'at asari hisoblangan. Bu yerda quyosh va oy harakati, yulduzlarni joylashishi, quyosh, oy va yulduzlarni o'mni belgilangan. Yilning fasllari, oylar, kunlarning aniq hisobi olingan.

**Amir Temur maqbarasining** qurilishi 1403-yildan boshlangan bo`lib, ushbu maqbarani Sohibqiron bobomiz Amir Temur Samarcandda suyukli nabirasi Muhammad Sultonga atab qurdirgan. Maqbarada Sohibqironning piri Mir Sayyid Baraka va Sayyid Umarning qabri ham bor. Amir Temurning ustozlaridan bo'lган Mir Sayyid Baraka 1404 – yilda Mozandaronda vafot etgan va Afg'onistonning Andxud shahrida dafn etilgan. Amir Temur vasiyatiga ko'ra jasadi Samarcandga SHohruh Mirzo tomonidan keltirilgan. Buyuk Sohibqiron o'z jasadini uning oyog'i uchiga qo'yishlarini vasiyat qiladi. Bundan tashqari, maqbaraga A. Temurning o'g'llari Umarshayx, Mironshoh va SHohruh, nabiralari Muhammad Sulton, Mirzo Ulug'bek va boshqalar dafn etilgan.

Amir Temur maqbarasining ichki ko'rinishi to'rtburchak, uning tashqi ko'rinishi esa sakkiz tomonli prizma shaklida. Prizma ustida ko'p qovurg'ali gumbazni ko'tarib turuvchi slindr shakldagi qurilma ishlangan. Ziyoratxona o'rtasidagi hazira sahniga qator qabrtoshlar qo'yilgan. Maqbara binosi va uning oldidagi peshtoqli darvozasi bor hovli saqlangan. Maqbaraning janub va g'arb

tomonidagi g'ishtdan ishlangan bezaksiz katta peshtoqli gumbaz qay vaqtida qurilganligi aniq emas. Maqbara devorlari havorang, zangori va oq sirli koshinlar, geometrik shakldagi naqshlar bilan bezalgan. Maqbara qurilishi Amir temurning nabirasi Mirzo ulug'bek davrida ham davom ettirilgan. Uning davrida qabrlarning turgan joyi o'ymakor marmar panjara bilan o'raglan. Uning buyrug'i bilan 1424 –yili maqbaraning sharq tomonida to'rt qubbali galeriya qurildi. Ushbu galeriyadan maqbaraga kirish mumkin. Maqbara interyerining sosi havorang, devorlariga esa naqshlar berilgan. Maqbaraning tashqi gumbazi qovurg'ali baland doira asos poyasiga o'rnatilgan.

Amir Temur maqbarasining bugungi ko'rinishi XV asrdagi majmuuning saqlanib qolgan bir qismidir. Bu me'moriy ansambl O'rta Osiyoning noyob me'moriy durdonalari orasida alohida o'rinni egallaydi. Mustaqillik yillarida ko'plab tarixiy obidalarimiz singari Amir Temur maqbarasi ham qayta ta'mirlandi. O'zining serhasham, mahobatli ko'rinishi qaytadan tiklandi.

**Bibixonim madrasasi va maqbarasi** Saroymulkxonim (Bibixonim) Chig'atoy xonlariga mansub Qozonxonning qizi bo'lib, 1341 yilda tug'ilgan. 1370 yili Amir Temur nikohiga o'tgan. U xon avlodiga mansubligi uchun «Bibixonim» (Kattaxonim) unvoniga sazovor bo'lган. Saroymulkxonim siyosatdon va insonparvar ayol edi. Ko'pgina tarixiy kitoblarda, jumladan, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abru, Abdurazzoq Samarqandiy, Fasih Havofiy, Ibn Arabshoh, Klavixo kabilar asarlarida Saroymulkxonim fazilatlari, shaxsiy sifatlari ko'p ulug'lanadi. Chunonchi, Ispaniya elchisi Ryui Gonzales de Klavixo o'zining «Samarqandagi Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi» asarida oqila malika Bibixonimning Amir Temur sultanatidagi o'rni, qurultoylar va oliy majlislarda, amirlar bilan qatnashish huquqiga egaligini yozib qoldiradi. 1404 yil 17 oktyabrda Saroymulkxonim elchilarga katta ziyofat bergenini bayon qiladi. Bu faktlar esa Amir Temur sultanatida, davlat ishlarida Saroymulkxonim faol qatnashganini yana bir bor tasdiqlaydi. U Amir Temur ruxsati bilan Samarqandda ulkan madrasa qudirradi. Otasi Qozonxonidan meros bo'lgan bir juft baldog'ini sotuvga qo'yib, pulini madrasa qurilishiga ishlatgan

ekan. Samarqanddagi hozirgi Jome' masjidining kun chiqar tomonida, ya'ni Bibixonim maqbarasi yonida barpo etadi.

Bibixonim madrasa talabalariga g'amxo'rlik qilib borgan, ularga moddiy yordam berib turgan. Madrasa nihoyatda mahobatli bo'lib, Amir Temur qurdirgan Jome' masjidiga tutash va monand bo'lган. Biroq har xil sabablarga ko'ra madrasa keyinroq vayron etilgan. Bibixonim hayotda farzand ko'rmagan. Ammo u temuriyzodalarga murabbiylik qilgan. Xususan, Mirzo Ulug'bek Bibixonim tarbiyasida voyaga yetgan. Bibixonim 1408 yilda vafot etadi. Uning jasadi o'zi qurdirgan madrasa yonidagi maqbaraga qo'yilgan. Bibixonim madrasasi yoniga sohibqiron Amir Temur Hindiston zafaridan keyin mahobatli masjid qurdiradi. Hozir ushbu masjid mavjuddir. Bu buyuk koshonalar xalq o'rtasida «Bibixonim» nomi bilan shuhrat topgandir.

**Ulug'bek rasadxonasi** 1424 – 1428 – yillar mobaynida Samarqand shahri yaqinidagi Obirahmat anhori bo'yida qurilgan. Rasadxona Mirzo Ulug'bek farmoniga muvofiq qad ko'targan bo'lib, uni bunyod etishda Ulug'bekning ustozি Qozizoda Rumiy va G'iyosiddin Jamshid bosh – qosh bo'ladilar. Rasadxona joylashgan ushbu mavze mahalliy aholi o'rtasida,, Naqshi jahon,, degan nom bilan mashhur bo'lган. Rasadxonaning asosiy qismi radiusi 40,2 metrli sekstant bo'lган.

Ulug'bek rasadxonasida olib borilgan kuzatishlar va tadqiqotlar tufayli 1018 ta qo'zg'almas yulduzlarning o'rni va holati aniqlanib, ularning astranomik jadvali tuzildi. Shu davrda olib borilgan tadqiqotlar asosida matematika va astranomiya fanlariga oid ko'plab nodir asarlar yaratildi. Mirzo Ulug'bekning say' — harakatlari natijasida rasadxona o'z zamonasi sharoitiga mos mukammal astranomik asbob va uskunalar bilan jihozlangan oliy darajadagi ilmgohga aylanadi. Bundan tashqari ushbu rasadxona qoshida fanning deyarli barcha sohalariga tegishli qariyb o'n ming jild kitob mayjud bo'lган zamonasining boy kutubxonasi ham tashkil qilinadi. Ulug'bekning vafotidan so'ng (1449) rasadxona qarovsiz holga kelib, xaroba holga kelib qoladi, uning asboblari buzib tashlanadi. olimlar Samarqandni tark etishadi. Rasadxona ayovsiz urushlar tufayli XVI – XVII asrlarda yo'q bo'lib ketadi. Nihoyat arxeolog olim V. L. Vyatkin XVII asrga oid bir vaqf hujjatni Samarqandlik keksa

olim qo'lidan olishga muvaffaq bo'ladi. Shu asosda rasadxonaning saqlangan yer osti qismini topadi. Rasadxona qoldiqlari topilgan tepalik yer sathidan balandligi taxminan 21 metr, sharqdan g'arbga cho'zilgan kengligi qariyb 85 metr, janubdan shimolga cho'zilgan uzunligi 170 metr keladigan tabiiy toshli balandlikdan iborat. Qazishma ishlari olib borilgan vaqtida turli rangdagi ko'pgina koshin g'ishtchalar, shuningdek, mozaika bo'lakalari ham topilgan. Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, devordagi suratlarda osmon gumbazi, samoviy jismlar, ularning joylashishi, sayyoralarining orbitalari, qo'zg'almas yulduzlar, dengizlar, okeanlar, tog'lar bo'yicha iqlim mintaqalariga bo'lingan yer kurrasи va h. k. lar tasvirlangan.

XVII – XVIII asrlarga oid adabiyotlarda Ulug'bek rasadxonasi haqida gapirilib, uning ulkanligi va ulug'vorligi ko'rsatib o'tilad. Rasadxonaning balandligi 31 metr bo'lган va rasadxona tevaragida olimlar va xizmatchilar uchun katta – kichik hujralar qurilgan

**Yunusxon maqbarasi** Temuriylar davri yodgorliklarining Toshkentdagи eng noyob va qadimiy obodalaridan biri — Yunusxon maqbarasidir. Yunisxon 1485-87 yillarda Toshkent hokimi bo'lган. Ma'lumotlarga ko'ra, u — Zahiruddin Muhammad Boburning onasi Qutlug' Nigorxonimning otasi. Yunusxon 1434 yilda Ulug'bek tomonidan Xurosonga Shoxrux huzuriga yuborilgan. U yerda mashhur tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiydan ta'lim olgan. 1485 yilda Toshkent shahri va viloyati hokimligini boshqargan.

**Shayx Xovandi Tahur maqbarasi** Bu maqbara XV asrning ikkinchi yarmida Xo'ja Ahror Valiy tomonidan qurilgan. Maqbaraning hozirgi ko'rinishi XIX asrda qayta tiklangan. 1980 yillarda maqbara qaytadan ta'mirlangan. Majmuadagi qabriston Toshkentning eng qadimiylaridan biri hisoblangan. U yerda pishiq g'ishtdan ishlangan qabrlar ko'p bo'lган. Qabriston o'rtarog'ida Shayboniyxonning 1518 yilda vafot etgan xotini — Jamol xonim va qozoq xoni Rustam Bahodirxonning marmardan ishlangan qabrlari bo'lган.

**Zangi ota majmuasi** — Toshkent viloyati Zangi ota qishlog'idagi me'moriy yodgorlik (XV-XXasr). Zangi ota majmuasi Zangi ota, Anbar bibi maqbarasi, darvozaxona, madrasa, masjid, xonaqoh-shiypon, minora va hovuzdan iborat. Anbar

bibi maqbarasida hovuz, shiypon va darvozaxona alohida-alohida qurilgan. Zangi ota maqbarasi esa, madrasa va masjid bilan yonma-yon tushgan bo'lib, hovliga shimoliy-sharq va shimoliy-g'arbdagi darvozalar orqali o'tiladi. Minora ham shu hovlining o'rtarog'ida masjid va maqbaraga yaqinroq qilib qurilgan. Majmuaga janubdan qadimiy qabriston bilan tutashgan, uning atrofi devor bilan o'rالgan. Zangi ota maqbarasining peshtoqi hovliga qaragan. Qolgan uch tomoni esa, qabristonga yondosh qilib qurilgan.

Shaxrisabz shahrining qadimiy qismi uzoq vaqt davomida shakllangan bo'lib turli me'moriy qatlamlarning ustma-ust bo'lishi oqibatida, shahar devorlari ichida o'ziga xos yaxlit bir shaklga kelgan. Uning kompozitsiyasining asosini, Temur va temuriylar davrida bunyod etilgan, unikal me'moriy obidalari tashkil qilib, ular o'zining asli ko'rinishini saqlab qolagn va shaharning o'ziga xos tarixiy ko'rinishini belgilab beradilar. 2000 yilda «Shaxrisabz shahrining tarixiy markazi» Umumjahon medaniy meros ro'yxatiga kiritilgan.

Amir Temur va temuriylar davrida qurilgan memoriy inshootlar.

1. Samarqand. Jome' masjidi. (Bibixonim masjidi) 1399-1404 y. Me'mor - Jaloliddin Maxmud ibn Dovud.
2. Shahrисabz. Oq saroy. 1385-1400 y. Me'mor: Ustod Muhammad Yusuf.
3. Samarqand. Shohizinda. XIV-XV-asr. Me'morlari: ota-o'g'il Shamsiddin va Zayniddin, Badriddin Samarqandiy, Muhammad hoja, Bangir, Yusuf Sheroziy, Usto Siddiq va boshqalar.
4. Samarqand. Go'r Amir. XIV-XV asr. Me'mor: Muhammad ibn Maxmud Isfaxoniy.
5. Samarqand. Bogi Dilkusho. 1397-1399 y. Me'mor aniq emas.
6. Samarqand. Muhammad Sulton madrasasi. XIV-asr Amir Temur davri.
7. Turkiston. Ahmad Yassaviy maqbarasi. XIV-asr Amir Temur davri.
8. Samarqand. Qo'shgumbaz (Shoxi Zinda). XIV-asr Amir Temur davri.
9. Samarqand. Ulug'bek madrasasi. 1417-1420. Me'mori aniqlanmagan.
10. Samarqand. Ulug'bek xonaqosi. 1417-1420. Me'mori aniqlanmagan.

11. Samarqand. Ulug’bek rasadxonasi. 1424 yil. Me’morlari: bosh muhandis: G’iyosiddin J.Koshiy, ilmiy maslahatchi: Qozizoda Rumiy, me’mor: ustod Ismoil.
12. Buxoro. Ulug’bek madrasasi. 1417 y. Me’mor: Ismoil ibn Tohir Isfaxoniy.
13. G’ijdivon. Ulug’bek madrasasi. 1432-33 y. Me’mor nomalum.
14. Buxoro. Labi hovuz. XIV-XV-asrlar. Shakllanishi.
15. Chelyabinskiy-Rossiya. Temur minorasi. XIV-XV-asrlar. Amir Temur davri.
16. Samarqand, Shahrisabz. Shahar qal’alari. XV-asr. Amir Temur davri.
17. Samarqand. Ko’ksaroy to’rt qavatli. XV-asr. Amir Temur davri.
18. Samarkand, Shahrisabz. Amir Temur va Ulug’bek davrida kurilgan boshqa memoriy ansambllar.

### **3.XVI-XVIII asrlarda me’morchilik**

Tarixiy ma’lumotlarga ko’ra, XVI asrning 1-yarmida O’rta Osiyoda – Movarounnahrda temuriylar xukmronligi yakuniga yetadi. Bu Xusayn Boykaroni vafot etishi va Samarkandda Bobur Mirzoni Shayboniyxon tomonidan yengib, sungra Hirot taxtini egallashi bilan xarakterlanadi.

XVI asrda O’rta Osiyoda Buxoro va Xeva xonligi vujudga keladi. Abdullaxon II-chi Movarounnahrni birlashtirib oladi (1534-98 yy). 1599 yili Movarounnahrda xokimiyat Ashtarxoniyilar kuliga utadi. 1740 yili Eron shoxi Nodirbek Buxoroga bostirib kiradi, 1753 yili mangitlar sulolasini birinchi amiri Muxammad Raximxon kuliga utadi. Muxammad Raximxon tezda savdo-sotikni yulga kuyib, chet ellar

Buxoro xonligi tasarrufidagi hududlarda me`morchilik ishlari ham ancha rivoj topdi. Ko`plab masjidlar, madrasalar, bozorlar, xonaqohlar, karvonsaroylar, hammomlar, sardobalar barpo etildi. XVII asrda Samarqand Registoni ansamblining hozirgi qiyofasi shakllantirildi. Samarqand hokimi Yalangto`sh Bahodir 1619 - 1635-yillarda vayrona holatga tushib qolgan Registon maydonida Ulug`bek madrasasi qarshisida Sherdor madrasasini, uning yonida 1646 - 1659- yillarda Tillakori madrasa-masjidini o`z mablag`lari hisobidan bunyod ettirgan. Samarqand Registon ansamqli o`zining rang-barang koshinkor bezaklari, naqshinkor peshtoqlari, ulkan

gumbazlari bilan O`rta Osiyo me`morchiligining noyob tarixiy yodgorligi bo`lib, bugungi kunda jahon jamoatchiligi, sayyoohlari e`tiborini o`ziga jalb qilmoqda.

Buxoroda yirik me`moriy majmua - Labihovuz ansambli bunyod etildi. Buxoroning eng badavlat kishilaridan biri bo`lgan Nodirdevonbegi 1620- yilda bozor maydoni o`rtasida bo`yi 45 metr, eni 36 metr, chuqurligi 5 metr bo`lgan katta hovuz qurdirib, atrofini shag`al, marmar va toshlar bilan mustahkamlattiradi. Hovuz atrofida Nodirdevonbegi madrasasi va xonaqohi, Ko`kaldosh madrasasi, Ernazar elchi madrasasi bunyod etiladi. 1652- yilda Buxoro shahrida Abdulazizzon qurdirgan qo`sh imoratli madrasa mustahkamligi, nafis naqshli koshinlarga boyligi bilan ajralib turadigan, o`z zamonasi me`morchiligining yetuk namunasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, XVII - XVIII asr birinchi yarmida og`ir siyosiy vaziyatga qaramasdan xalqimiz o`zining ijodkorlik, bunyodkorlik xislatlarini namoyon qila oldi.

**Poyi Kalon me'moriy majmui** barcha mehmonlar e'tiborini jalb qiladigan joy. Mo'g'ul davridan ancha ilgari, XII asrda barpo etilgan Kalon Minorasini deyarli hamma joydan ko'rish mumkin. XVI asrda uning yonida Masjidi Kalon va ro'baro'sida Miri arab madrasasi qurilgan. Musulmon bayramlarida minora tepasidan muazzinning solih musulmonlarni namozga chorlovchi ovozini eshitish mumkin edi. Qadim zamonlarda kechasi minora tepasida yoqilgan olovni uzoq-uzoqlardan ko'rish mumkin bo`lgan. Hozir, xuddi ilgari paytdagidek, minora eski shahar tepasida turibdi.

**Abdullaxon madrasasi** (Buxoro, 1588-90) – Abdullaxon II qurdirgan. Xalq orasida Modarixon madrasasi nomi bilan birga Qo'sh madrasa nomini olgan. Madrasaning to'rt tomoni baland peshtoqli bo`lib, bosh tarzidagi peshtoq, uning yonlaridagi ikki qavatli hujralar va burchaklaridagi guldastalar oq, ko'k, zangori rangli sirkor baezaklar bilan pardozlangan.

**Abdulazizzon madrasasi** (Buxoro, 1652) -Buxoro xoni Abdulazizzon II qurdirgan. Me'mori Mimxoqon ibn Xo'ja Muhammadamin. Madrasa tuzilishi oddiy. To'rtburchak hovlining har tarafida peshtoqli ayvon bor. Ayniqsa, tashqi peshtoq sirkor parchin bilan qoplangan. Ichki gumbazlar bezagiga ganch muqannas, islimiy naqshlar va zarhal bezaklar qo'llanilgan.

Buxoroning tarixiy va me`moriy yodgorliklari:

Ark(11-20 asrlar).

Bola-Xovuz majmuasi (18 asr boshi – 20 asr).

Samaniy maqbarasi (9-10 asrlar).

Chashmai-Ayub mozori (1380 yoki 1384-85 y.).

Abdullai-xon madrasasi (1596-98 yy.).

Madari-xon madrasasi (1556-57 y).

Baland masjidi (16 asr boshi).

Gaukushon majmuasi (Masjid, minora, madrasa), (16 asr).

Xonaqa Zayniddin Xoji (1555).

Poyi-Kalon majmuasi (12-14 asr).

Labi-Xouz majmuasi (16-17 asr).

Ko'kaldosh madrasasi (1568-69).

Xanaqa Nodir Divanbegi (1620).

Ulug`bek madrasasi (1417).

Abdulaziz Xon madrasasi (1652).

Bola Xovuz masjidi (1712).

Sayfiddin Boxarziy maqbarasi (13 asr ikkinchi yarmi -14asr).

Buyan Quli xon maqbarasi (14 asr ikkinchi yarmi, 15 yoki 16 asr)

Nomozgoh masjidi (12-16 asr).

Xanaka Fayziobod (1598-99).

Chor-minor madrasasi (1807).

Buxoro Amiri Sitorai Moxi Xossa qasri (19 asr oxiri - 20 asr boshi).

Chor-Bakr me`morchilik majmuasi – shayx Jubayri oilasining davn etilgan joyi (1560-63).

Bahouddin Naqshbandiy me`morchilik majmuasi (16-17 asr).

#### **4. O`rta Osiyoda xonliklar davri me'morchiligi. Buxoro, Xiva va Qo`qon xonligi yodgorliklari**

Buxoro xonligi. 1500-1753 yillarda hukmronlikda bo'lgan O'rta Osiyoning yirik feodal davlati edi. Buxoro xonligiga Muhammad SHaybonixon asos soladi. Uni qisqa muddat Bobur boshqaradi, lekin ko'p o'tmay 1512 yili xonlikni yana SHayboniyxonlar egallaydi. 1556 yildan Buxoro xonligi Abdullaxon qo'liga o'tadi. Buxoro xonlikni poytaxti bo'ladi.

Buxoro xonligi Abdullaxon davrida birmuncha kengaydi va rivojlandi. Abdullaxon Buxoro xonligini Farg'ona, Xuroson, Xorazm, Badaxshon kabi yerlargacha kengshaytirib bordi. Xonlik kattagina davlatga aylandi.

Buxoro xonligi shayboniylar davrida iqtisodiy, madaniy va ishlab chiqarish asosida yaxshi rivojlandi. Ichki va xalqaro savdo-sotiq, madaniy aloqalar o'sdi. Buxoro xonligi Rossiya, Turkiya, Xitoy, Hindiston, Misr, Eron kabi mamlakatlar bilan aloqa qilardi. bilan madaniy va iktisodiy alokani kuchaytiradi. Uning ayniksa Rossiya bilan diplomatik alokasi yaxshi rivojlanadi.

1826-60 yillarda Buxoroda Nosrulloxon xukmronligi bulib, u mamlakatdagi barcha xonlik, bekliklarni birlashtirib, yagona davlat tashkil etadi.

XVIII asrni boshlarida Fargona videoysida Kukon xonligi tashkil topadi. Kukon xonligi asrni oxirigacha Movarounnahrni kupgina viloyatlarini uziga kushib oladi. 1815 yili Toshkent xam Kukon xonligiga kushib olingen edi.

O'rta Osiyo – Movarounnahr XVI-XVIII asrlarda bo'lib utgan tus-tupolon, jangu-jadallar bu ulkani san'ati, madaniyati va me'morchiligidagi ancha tushkunlik xolatiga sabab buladi.

Lekin shunga karamay Urta Osiyoda san'at, madaniyat va me'morchilik uziga xos xarakterda rivojlanib keldi.

XVII asrda «SHerdor» madrasasi, Samarkandda, XVI asrda Toshkentda «Kukaldosh» madrasasi, Buxoroda «Bolaxovuz» masjidi, «Sitorai Moxi Xosa» saroyi, Namanganda «Xujam» makbarasi, Xevada Ollokulixon» karvon saroyi, «Toshxovli», «Nurilla boy» saroyi, Kukonda Xudoyorxon arki, me'moriy binolar kuriladi.

XVIII-XIX asrlarda Xevada «Paxlavon Maxmud», Kukonda «Daxmai Jaxon» makbaralari kabi yuzlab me'morchilik obidalari kuriladi.

XVII-XVIII asrlardagi binolar kурilishi ansambl kurinishida bulib, ular bir necha binolarni uzida mujassam etardi. Binolarni ichki va tashqi bezaklariga e'tibor kuchaydi. Ayniksa, binolarni ichki tomoni goyat yuksak nakkoshlik va uymakorlik san'ati bilan bezatildi. Bu davrda kulolchilik va kandakorlik san'ati gullab yashnadi.

Buxoro «muzey shahar» sifatida o'rta asrlarning 140 dan ortiq me'morchilik yodgorliklarini o'zida jamlagan. Poyi Kalon, Ismoil Somoni maqbarasi, Minorai Kalon kabi va boshqa majmualar haligacha katta e'tibor qozonib kelayapti. madrasa, masjid, maqbara, karvonsaroy, ko`prik va muhtasham binolar bunyod etiladi. Xalq orasida Madrasayi Mir nomi bilan mashhur bo`lgan Norbo`tabiy madrasasi, Daxmayi Jahon ansambli, Norbo`tabiy va Modarixon daxmalari hozirgacha saqlanib kelmoqda.

Umarxon Turkiston va uning atroflarini Oroldan Yettisuvgacha egallab, Oqmasjid (Qizil O`rda), Avliyoota (Jambul), Pishpak (Bishkak) qal'alaririi bunyod etdi. Qo`qonda va boshqa shaharlarda ko`plab binolar qurilgan. Norbo`tabiy madrasasi (1798), Madalixon madrasasi, Madrasayi Kamol qozi (1820), Madrasayi Tunqotar, Madrasayi Haqquli mingboshi (1825), Madrasayi Miyon hazrat, Madrasayi Mohlaroyim, Madrasayi Hakim To`ra (1795), Madrasayi Xonxoja eshon (1789), Madrasayi Buzrukxoja (1801), Madrasayi Pirmuhammad yasovul (1802), Madrasayi Xojabek (1805), Madrasayi Oxund devonbegi (1805), Madrasayi Mingoyim (1802), Madrasayi Jome (1817) shularjumlasidandir.

XIX asrning birinchi yarmida Toshkentda ham muhtasham me'moriy-diniy inshootlar qurilishi, eskilarini ta'mirlash ishlari keng ko`lamda olib borildi. Baroqxon va Ko`kaldosh madrasalari qayta ta'mirlandi. Shayx Xovondu Tohur me'moriy majmuasi hozirgi ko`rinishda shakllantirildi. Zaynidin bobo uchun yangi maqbara qad ko`tardi. Yunusxo`ja qarorgohi Eski O`rda buzilgani sababli yangi markaz — Qo`qon O`rdasi bunyod etildi.

Xivaning tarixiy va me`moriy obidalari

Ichan-qal`a:

Polvon Darvoza yaqinidagi Saidboy masjidi va madrasasi (XVIII asr oxiri – XIX asr boshi)

Alliqulixon madrasasi (1834-35).

Qutlug'-Murod-inak madrasasi (1804-12).

Alliqulixon Tim va Karavonsaroyi (19 asr)

Abdulla Xon madrasasi (1865)

Anush-xon masjidi va hammomlari (1830-36)

Oq masjid (1832/42)

Juma masjidi va minorasi (1657)

Tosh-xovli (Allaqulixon saroyi) (1830-36)

Said Alouddin maqbarasi (XIV asr)

Muxammad Amin Xon madrasasi (1851-52)

Kalta Minor minorasi (1855)

Kunya-Arq (1868-88)

Tura-Murod-Tur minorasi (1888).

Muxammad Amin inak madrasasi (1871).

Shirgazi xon madrasasi (1718/20).

Bog'bonli masjidi (XIX asr.).

Arabxon madrasasi (1838).

## 4-MAVZU: MUSTAQIL O'ZBEKISTON ME'MORCHILIGI

### Ma'ruza mashgulotining ta'lim texnologiyasi modeli

<b>O`quv vaqt: 80 minut</b>	<b>Talaba soni: 40-80 gacha</b>
<b>O`quv mashg`ulotining tuzilishi</b> <b>Ma'ruza rejasi</b>	1. Mustaqillik yillarida me'morchilik va obodonlashtirish ishlariga e'tibor 2. Mustaqillik yillarida qad rostlagan yirik inshootlar 3. Milliy va zamonaviy me'morchilikni uyg`unlashtirish masalalari
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarga Mustaqillik yillarida me'morchilik rivojlanishini yetkazib berish.</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>  Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy masalalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.	<i>O`quv faoliyatining natijalari</i> <i>(talabalar):</i>  Mustaqillik davri me'morchiligi haqida ma`lumot oladilar.  Mustaqillik yillarida qad rostlagan inshootlar xususida bilimga ega bo`ladilar.
<i>Ta'lim usullari:</i>	“Klaster”, Kontseptual jadval, ma'ruza
<i>O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli</i>	Ommaviy
<i>Ta'lim vositalari</i>	Proyektor, video materiallar, slaydlar, marker, flipchart, jadval
<i>Qayta aloqa usullari va vositalari</i>	Og`zaki nazorat: savol-javob

## O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

<b>Ishlash bosqichlari, vaqtি</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O`qituvchining</b>	<b>Talabaning</b>
1- bosqich 1.1. O`quv huj-jatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish (5 min).  1.2. O`quv mashg`ulotiga kirish (10 min)	1.2 Mustaqillik davri me'morchiligi va obodonlashtirish ishlari haqida ma'lumotlar yetkazish.	Tinglaydilar, aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
2- bosqich Asosiy 60 min.	2.1. Mustaqillik yillarda qad rostlagan inshootlar haqida tushuncha berish.  2.3. Milliy va zamonaviy me'morchilikni uyg`unlashtirish xususida ma'lumotlar yetkazish	Yozadilar, tinglaydilar, savollar beradilar.
3- bosqich. Yakuniy natijalar 5 min.	3.1 Mavzu bo`yicha xulosa qilish va o`quv mashg`ulotning maqsadiga erishish darajasi tahlil qilinadi  3.2 Mavzu yuzasidan o`quv vazifasi beriladi. Amaliy mashg`ulotga tayyorlanish.	Olgan ma'lumotlarni umum-lashtirib savollar beradilar.

## **4-MAVZU: MUSTAQIL O'ZBEKISTON ME'MORCHILIGI**

### **Reja:**

1. Mustaqillik yillarda me'morchilik va obodonlashtirish ishlariga e'tibor
2. Mustaqillik yillarda qad rostlagan yirik inshootlar
3. Milliy va zamonaviy me'morchilikni uyg'unlashtirish masalalari

Mustaqillikka erishilgandan keyin tarixda birinchi marotaba 1995 yilda "Arxitektura va shaxarsozlik" bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunni amalga oshirish va bajarish jarayonida ko'p soxaviy imkoniyatlar paydo bo'ldi va shu asosda tarixni, madaniy boyliklarni, iqlimni, zilzila va umuman, hududimizga xos bo'lgan holatlarni e'tiborga olgan holda 148 ta milliy-davlat "Qurilish me'yorlari va qoidalari" (QMQ) ishlab chiqildi. Ta'kidlash joizki, mustaqillikning birinchi yilidan va ayniqsa, oxirgi ikki-uch yil mobaynida shaharsozlik sohasiga e'tibor kuchayib kelmoqda. Shaharsozlik sohasiga tegishli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston Respublikasida arxitektura va shahar qurilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni (2000 yil 26 aprel 2595-sonli), Vazirlar Mahkamasining «Arxitektura va qurilish sohasidagi ishlarni tashkil etish va nazoratni takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida» (2000 yil 27 aprel 165-sonli), «Shaharlar, tuman markazlari va shahar tipidagi poselkalarning bosh rejalarini ishlab chiqish va ularni qurish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida» (2000 yil 14 avgust 320-sonli), «Arxitektura va shaharsozlik soxasidagi qonun xujjalariiga rioya qilinishi uchun rahbarlar va mansabdor shaxslarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari (2000 yil 23 avgust 329-sonli) fikrimiz dalilidir.

Serquyosh diyormiz xaritasida joylashgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qo'qon, Toshkent kabi ko'xna, Navoiy, Zarafshon, Chirchiq, Olmaliq kabi yangi shaharlar bilan qancha faxrlansak arziydi. Agar 1926 yil O'zbekistonda faqatgina ikkita katta shaxar - Toshkent va Samarqand bo'lган bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni o'n yettitaga yetdi. Umuman, mamlakatimizda 121 ta shahar va 113 ta shahar tipidagi poselkalar mavjud.

Shaharlar qiyofasining o'zgarib, zamonaviylik kasb etishida O'zbekiston shaharsozlik loyihalash va ilmiy-tekshirish instituti va "Toshboshplan" mutaxassislarining salmoqli xissasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shaharlar me'morlar yaratgan bosh planlar asosida qurilib, ularning markazlari zamonaviy yirik jamoat binolari, bog'-rog'lar, ansamblar majmuini tashkil etmoqda.

O'zbekistonda qayta qurilayotgan qadimiy shaharlar taraqqiyotini Toshkent shahri misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Toshkent shahrini qayta qurish Bosh plani «eski shahar» bilan «yangi shahar» o'rtasidagi farqni yo'qotib, Toshkentni bir butun shaharga aylantirishga qaratilganligi bilan diqqatga sazovordir. Birinchi darajadagi amaliy ishlar qatorida "eski shahar" bilan "yangi shahar"ni o'zaro bog'lovchi tor arava yuruvchi Navoiy ko'chasini 66 metrgacha kengaytirilishi va bu ko'cha bo'ylab yangi uch-to'rt qavatli turar joylar, kino-teatr, ma'muriy binolar qurilishini, xiyobon bunyod etib, A. Navoiy haykali o'rnatilishini aytib o'tish kifoya.

Poytaxtimiz markaziy qismi ham qaytadan qurilib, uning zamonaviy me'morligi mexmonlarning e'tiborini tortmoqda. Bu yerda yaxlit me'moriy ansamblardan tashkil topgan ma'mu-riy-jamoat binolari, bog'-rog'lar, sport inshootlari, xiyobonlar, sun'iy hovuzlar, keng magistrallar, yer osti yo'laklari, turar joy va hokazolarni o'z ichiga olgan markaz qad ko'tardi.

90-yillarning boshi O'zbekiston va ayniqsa, Toshkent shaharsozligida yangi sahifa ochdi, desam mubolag'a bo'lmaydi. 1992 yil 1 sentyabrdan Maydonning markazidagi haykal Prezident I.A.Karimov g'oyasi asosida mustaqil O'zbekistonning ramzini ifodalovchi "SHarsimon" monumentga (me'mor F. Tursunov) almashtirildi. Bu ulkan ijodiy tadbirlar natijasida Mustaqillik maydoni butunlay yangi ko'rinish kasb etdi.

Shaharsozlikdagi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan Toshkentning aholi zich yashaydigan "eski shahar" qismi mustaqillik sharofati bilan tom ma'noda qaytadan bunyod etilmoqda. Farobi, Sag'bon, Qorasaroy kabi qadimiy tor ko'chalar ta'mirlanib, ular o'rnila zamonaviy magistrallar, muxandislik inshootlari o'gkazildi, yangi turar joy binolari qurilmoqda. Aholi turmushini zamon talablariga moslash maqsadida ommaviy transport, kanalizatsiya, issiq suv kabi qulayliklar bilan

ta'minlandi. Masjid va madrasalar ta'mirlanib, xalq xizmatiga topshirilmoqda, yangi madaniy-maishiy, savdo-sotiq do'konlari qurilmoqda. Ana shunday bunyodkorlik ishlari Samarqand, Buxoro, Ko'qon, Namangan kabi tarixiy shaharlarning "eski shahar" qismlarida xam amalga oshirilayotgani katta yutuqlarimizdan biridir. SHaharsozlikning yana bir tomoni — bog'-pog', landshaft me'morligidir. Toshkentdag'i Alisher Navoiy nomli Milliy bog' qatorida respublikamiz bo'ylab bu soxada ham juda katta bunyodkorlik ishlari bajarilmoqda. Andijon shahri markazida joylashgan A. Navoiy nomli dam olish va istiroxat bog'i to'liq qayta ta'mirlanib, kirish qismi zamonaviy va milliy uslubda qurildi. SHaharning "Bog'ishamol" daxasida ochiq tepalikda bobokalonimiz Zahiriddin Muxammad Bobur xotirasini abadiylashtirish uchun "Bog'i Bobur" oromgoh-ziyoratgohi bunyod etildi. Daraxtlar ekilib ko'kalamzorlashtirildi, dam olish va ovqatlanish uchun oshxonalar va choyxonalar qurildi. O'zbekistonda sanoatning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, shu bilan birga, aholi sonining uzlusiz o'sib borishi natijasida paydo bo'lган CHirchiq, Olmaliq, Angren, Yangiyo'l, Navoiy, Zarafshon kabi qator yangi shaharlar mavjud. Yangi shaharlar qurilishining komplekslik uslubini Navoiy shahri misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Samarqand - Buxoro yo'li orqali yurgan yo'lovchilarning, bir xildagi cho'l va bepoyon paxtazorlar bo'ylab borgan kishilarning ko'z o'ngida birdan ulkan sanoat inshootlari va ma'muriy-jamoat binolari, uy-joy mavzelarining yorqin me'morligiga ega bo'lган yangi shahar qiyofasi namoyon bo'ladi. Navoiy yaqinidagi Sarmish tog'darasida kator qadimi suratlar —toshlarga o'yib ishlangan chizg'ich (petroglif) larni ko'rish mumkin. Qadimi madaniyatdan darak beruvchi bu va boshqa barcha dalillar Navoiy shahrining bo'sh joyda barpo bo'lмаганини aytib turibdi. Axir bu joylar bir vaqtlar taraqqiy qilgan Sug'd davlati tarkibida bo'lган-da! Eng qadimgi davrlarda bu joylarda katta ahami-yatga ega bo'lган savdo-sotiq yo'llari o'tgan bo'lib, shulardan biri tarixda ma'lum va mashxur Buyuk ipak yo'li SHarq va Fapb mamlakatlarini bir-biri bilan bog'lagan. «Zamonlar zanjiri»da qadimi shahar Karmananing o'rni alohida e'tiborga ega. Samarqand va Buxoroni tutashtirgan, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Mirzo Ulug'bek qadami tekkan qutlug' go'sha, ulur tarixchi

Narshaxiy asarlarida, Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma»sida o’z aksini topgan go’zal Karmana boy tariximizning durdonalaridandir. Afsuski, shaxar taraqqiyoti, uning tarixiy obidalari uzoq yillar e’tibordan chetda qolib keldi. Faqat istiqlol sharafi bilan Karmananing tarixida yangi saxifa ochildi.

Me’morlar shahar loyhasi ustida ishlar ekanlar, uning ko’chalar, maydon va xiyobonlari ko’rkam va so’lim bo’lishiga erishishdan tashqari, ichki muhitning ham shinam, jozibador chiqishiga harakat qilganlar. Bu jiatdan mahallalarning istiqomat uchun har taraflama qulay va atrof-muxitning kishi baxri-dilini ochadigan darajada xushchiroy bo’lishini ta’minlaganlar. Me’moriy turli-tuman go’zal shakl va qiyofalarda tiklangan turar joy binolarining orasiga har xil daraxt ko’chatlari o’tqazilib ko’kalamzorlashtirilgan, bolalar o’ynaydigan maydonchalar qurilgan, kattalar hordiq chiqaradigan, yosh-yalanglar ko’ngil ochadigan joylar muxayyo etilgan. Bu ijodiy yutuqlar uchun me’mor va quruvchilar gu-ruxi: mualliflar A.Korotkov, VIvanov, I.Orlov, N.Simonov va muxandis-konstruktor G.Smorodinlar Davlat mukofoti hamda me’morlarning Xalqaro uyushmasi tomonidan Patrik Aberkrombi sovrini bilan taqdirlandilar.

Bir vaqtlar buyuk Alisher Navoiy orzu qilgan go’zal maqsadlar bugun chinakamiga ro’yobga chiqdi. Qudratli sanoat sohibi — bu navqiron shahar tobora keskin sur’atlarda o’smoqda. Ulur bobokalonimiz nomi bilan yuritiladigan shaharning uncha uzoq bo’lmagan tarixi qanchalik nafis bo’lsa, keljagi o’n chandon go’zaldir.

Istiqlol me’morligining eng go’zal va ko’rkam binolaridan — Oliy Majlis, Oqsaroy majmuasi, Toshkent shahar hokimligi, Toshkent birjasи, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, «Turkiston» saroyi, Toshkentdagi Xalkaro Savdo-Ko’rgazma majmuasi, Markaziy va Milliy bank, konservatoriyaning yangi binosi, o’zbek va rus dramatik teatrлari binolarining qayta tiklanishi, qator mehmonxonalar binosi, viloyat markazlaridagi yirik binolar, yangi muzeylar — bularning hammasi poytaxtimiz va respublikamiz shaharlariga “uzukka o’rnatilgan olmos ko’zdek” maydon va ko’chalar ko’rinishining yanada mahobatli bo’lishida, yaxlit me’moriy ansamblar tashkil etishda keng miqyosda juda ahamiyatlidir.

Mustaqil O'zbekistonda birinchilar qatorida 1992 yilda qurilgan yirik madaniyat binosi sifatida Anhor kanali bo'yida joylashgan "Turkiston" saroyini ko'rsatish mumkin. Bu bino 1989 yildan me'mor Yu.Xaldeev loyihasi bo'yicha o'ta sustkashlik bilan qurila boshlangan edi, mustaqillik sharofati bilan uni tezda yakunlash va interberiga zamonamizga xos milliy uslub kiritish vazifasi me'mor F. Tursunov ijodiga taalluqlidir.

"Turkiston" madaniy markazining ajralmas qismi sifatida Anhor kanalining so'lim soxilida bunyod etilgan Xalq ko'rikлari yozgi teatri (bosh me'mor V. Akopdjanyan, 1993Y.) O'zbekiston qurilish va me'morlik tajribasida ilk paydo bo'lган inshoot sifatida diqqatga sazovordir.

Zamonaviy me'morlikning an'anaviy xalq san'ati bilan uyg'unlashgan uslubini Temuriylar tarixi davlat muzeyi binosida (me'mor A.Turdiev va boshqalar, "Usto" uyushmasining xalq ustalari, 1995y.) yaqqol ko'rish mumkin. Bu bino Amir Temur xiyobonining shimoli-g'arbida qad ko'tarib, uning atrofi obodonlashtirilgan. Samarqanddagi Go'ri Amir maqbarasining qovurg'asimon gumbazini eslatuvchi bu binoning feraza rangli gumbazi va qamrab turgan 20 ustunli (har bir ustun balandligi 10 m) ayvoni o'zining ko'rakligi va sharqona ko'rinishi bilan atrofdagi binolardan ajralib turadi. Balandligi 30 metr, diametri 24 metrni tashkil etgan gumbazning ichki qismi Samarqandning Registon maydonidagi Tillakori madrasasi singari "kundal" uslubdagi moviy va tillaranglar bo'yagan ganchkor "islimi" naqshlar (xalq ustasi A.Umarov, me'morlar A.Ilhomov, N. Nabiev, S.Shukurov va boshqalar) bilan bezatilgan. Muzey zali va ikkinchi qavatdagи galereya sayqallangan oq va och kulrang marmarlar bilan qoplangan. Klassik uslubdan unumli foydalanilgan binolardan yana biri — Toshkent hokimligi binosi (me'mor F.Tursunov, 1997Y.)dir. Hokimiyat binosi istirohat bog'i atrofidagi eski pastqam binolar o'rnida, Toshkent ramzi bo'lmish Kurant — soatli minora bilan bir qatorda barpo etilgan. Hokimiyat binosining bosh ko'rinishi (fasadi) markaziy peshtoq va uning ikki qanotida simmetrik uslubda joylashgan to'qqizta ustundan tashkil topgan bo'lib, moviy gumbaz uning me'moriy kompozitsiyasiga tugallik baxsh etadi. T-simon shaklda tuzilgan binoning rejasi qulay va foydalanishga mosdir. Kirish qismidagi uch qavatga

ko'tarilgan atrium va undagi "ichki hovli" bino interberiga fayz kiritgan. To'rtinchi qavatda esa binoning markaziy gumbazi ostida foye joylashgan. Idoralar, majlis zallari, kutish va dam olish xonalari mavjud — ular asosan boqqa qaratilgan uch qavatli qismida joylashtirilgan. Gumbazning ichki sirti koshinkor naqshlar bilan bezalgan bo'lib, ularning rangi, uslubi Samarqand tarixiy yodgorliklariga hamoxangdir.

Poytaxtning Alisher Navoiy prospektida joylashgan Hamza nomli o'zbek drama teatri yangi nom (status) olgan — O'zbekiston Milliy akademik drama-teatri binosi qaytadan ta'mirlanib, zamonaviy va milliy qiyofa kasb etdi ("Tash-giprogor", me'morlar R. SHokirov, U. Raximov, 2001 y.). Uning tashqi ko'rinishi an'anaviy "ayvon" uslubida yechilib, yangicha taxlil etilgan — yoysimon peshtoq. ustunlar galereyasi bilan uyg'unlashtirilgan. Ustunlar va peshtoq. tabiiy och rangli "zarbon" marmari bloklari bilan qoplanib, peshtoqning pstki (tsokol) qismi va tantanavor yoysimon kirish zinapoyalari sayqallangan qizil granit bilan qoplangan.

Yuqorida sanab o'tilgan bino va majmualar ichida "Interkontinental" mexmonxonasi va Milliy bankning osmono'par binosi zamonaviy uslubga xos baquvvat temir-beton sinchi, "oynavand" ko'rinishi va dadil kompozitsion yechilmasi bilan O'zbekistan me'morligidagi yangi yo'naliш desak xato qilmaymiz. Turkiyaning "Ay-sel" korporatsiyasi (me'mor A. To`xtaev, 1995y.) qurgan bu ikkala bino Amir Temur shohko'chasiga qaratib yarim xalqa rejasi asosida qurilgan majmuuning ikki chetida barpo etilgan. Mehmonxonaning umumiy qiyofasi sayqallangan och kulrang plitkalar bilan qoplangan, yirik deraza oynalari va temir romlari havorangdir. Mexmonxona 250 nومерга mo'ljallangan bo'lib, ulardan 224 tasi oddiy, 18 tasi yarimlyuks (xar biri 69,0 kvadrat metrdan), 2 tasi lyuks (111,0 kvadrat metrdan) nомерларидан iborat va bitta prezident apartamenti (280 kvadrat metr) mavjud.

Nomerlarning hammasi zamonaviy santexnika, konditsioner va jihozlar bilan ta'minlanib, bu yerda turuvchi mehmonlar "beshyulduzli" jaxon andozalari kabi servis xizmatida kutib olinadi. Mexmonxona tarkibida 500 o'rинli restoran va bar, shuningdek, suzish havzalari, sauna, sport va aerobika zallarini o'z ichiga olgan sihat-

salomatlik klubi mavjud. 49 avtomashinaga mo’ljallangan garaj va texnik xonalar uning yertula (podval) qismida joylashgan. Kirish qismidagi atriumdan mexmonxonaning turli bo’lim — xonalariga kiriladi va mexmon uchun qulay dam olish-kutish joylari yaratilgan. Uning o’n uch (er osti qavatlaridan tashqari) Qavati xizmatini tez yuruvchan, atrof-muxitni tomosha qilishga mo’ljallangan lift servislari bajaradi. Majlislar zali mehmonxonaning old qismida joylashgan bo’lib, uning tashqi devori ustidan to’q sariq. tasma berilgan, ostini esa jigarrang panellar egallagan.

Hukumatning "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni amalda tatbiq qilish bo'yicha mamlakatimizda yuzlab yangi kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar qad ko'tardi. Ularning ko'pchiligi "UzLITTI"da ishlab chiqilgan loyihalar asosida qurilib, ularga har bir tuman va viloyatning o'ziga xos imkoniyat va sharoitlarini hisobga olgan holda me'moriy yechilmalar kiritilgan. Respublikadagi yirik institutlar o'rtasida o'tkazilgan tanlov bo'yicha "Uzshaxarsozlik LITI", "Tashgiprogor" va boshqa tashkilotlar buyurtmalar olib, ular asosida qator loyihalar yaratdilar va amalda tatbiq etdilar. Toshkent shahrining Uyg'ur ko'chasida joylashgan qurilish-kommunal kasb-hunar kolleji ("Tashgiprogor" aktsionerlik jamiyati, loyihachilar R.Iskandarov, L.Pergament, L.Serdyuk va boshqalar) ham nufuzli o'rinnlardan birini egalladi. Kollejning 3 gektardan ortiq hududdan iborat hovlisida yozgi sport inshootlari, futbol maydoni, suzish havzasi, tennis kortlari mavjud. Mazkur kollej 600 o'quvchiga mo’ljallangan bo’lib, 10 ta kasb yo’nalishi bo'yicha ta’lim amalga oshirilmoqda. Masalan, qurilish yo’nalishi bo'yicha pardozlash ishlari, umumqurilish ishlari, duradgorlik ishlari va h.k. Kollej binosining me'moriy yechilmasida boshqa o'quv muassasalaridan tubdan farq qiluvchi bir qator afzalliklar mavjud. SHulardan biri uchinchi qavat balandligida joylashgan ikkita ichki hovli bunyod qilinganligidir: Har birining sathi 540 kvadrat metr bo’lib, metall (ravoqlik) fermalar bilan yopilgan, tomi esa leksandan ishlangan. Bu katta hajmli ikkita zal kollejda turli tadbirlar, ko'rgazmalar, musobaqalar, to'garaklar va boshqa qiziqarli anjumanlarni o'tkazishga keng imkon beradi. Qishki va yozgi sport majmualari borligini alohida qayd qilish kerak. Oshxona va boshqa qulayliklar hisobga olingan.

Andijon viloyatining Jarqo'rg'on tumanida "Uzshaharsozlik LITI" loyihasi asosida bunyod etilgan 300 o'rini kasb-hunar kolleji, Nukus shahridagi sanoat kolleji, Urganch shahridagi yengil sanoat kolleji, Buxoro shahridagi qurilish sanoati kolleji, Zarafshon va Karmana shaharlaridagi kollejlar, Asaka va Yangiyo'l shaharlaridagi akademik litsey va boshqalar bu borada o'rnak bo'la oladi. Umuman, respublikamiz bo'y lab yuzlab pedagogika, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, maishiy xizmat kabi mutaxassisliklar bo'yicha kollej va litseylar qurilishi XXI asrga o'tish yillarida dadil qo'yilgan qadamlardan biridir.

Mustaqillikka erishgach, ko'p o'tmay O'zbekistan Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida (1992 yil 14 yanvar) "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" Qonun qabul qilindi, mamlakatda "Sog'lom avlod" Davlat dasturi ishlab chiqildi va keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Xalqaro tennis musobaqalari maskani — Toshkentdagi tennis korti, "Jar" sport majmui, Olimpiya shon-shuhrat muzeysi, Yunusoboddagi Markaziy Osiyoda yagona cho'milish havzasi, Namangandagi "Paxlavon" sport majmui, Navoiydagagi "Oltin suv" suzish markazi, Andijondagi "Navro'z" futbol maydoni va boshqa viloyatlarimizda, olis qishloqlarda qurilgan va qurilayotgan sport inshootlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Toshkentda 1997 yildan buyon har yili tennis bo'yicha "Prezident kubogi" uchun o'tkazilayotgan xalqaro musobaqalar shu sport turini bizda ommaviylashtirishga va keng ko'lamda respublika bo'yicha tennis kortlari qurilishiga sabab bo'ldi. Toshkentning Yunusobod tumani Amir Temur shoxko'chasida joylashgan tennis korti majmui (me'mor V. Akopdjanyan, 1996 y.) o'zining zamonaviy mahobatli ko'rinishi, yangi jaxon andozalari uslubida loyihalanishi va funktsional jihatdan to'la-to'kisligi bilan diqqatga sazovordir. Ochiq kort maydonlari shoxko'cha bo'y lab poytaxtimizdagi eng baland inshoot — Toshkent televizion minora (375 m) tagida joylashgan bo'lib, yaxlit me'moriy ansamblni tashkil etadi.

Majmua tarkibidagi ochiq kortlar orqasida uning g'arbiy qismida joylashgan 3000 o'rini usti yopiq universal tennis korti qurilishi istiqlol me'morligining durdona asarlari qatoridan nufuzli o'rinni egallaydi. Binoning rejasи burchaklari aylanma chiziqlar bilan chegaralangan to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, tomoshabinlar

tribunalari o'yin maydonini har tomondan qamrab olgan. Maxsus mehmonlar tribunasi va sharhlovchilar majmui g'arbiy sektorda, uning tepasida 200 o'rinali kafe va kichik bufetlar joylashtirilishi tomoshabinlarga barcha qulayliklar yaratmoqda. Bir qancha qo'shimcha xonalar — garderob, vrachlar xonasi, sportchilar xonasi, ma'muriyat va texnik xonalar tribuna tagidagi hududlarda qulay qilib rejalashtirilgan.

Mustaqillikning o'n yillik to'yi ayyomida Buxoroda shahar va xalqaro o'yinlarga maskan bo'la oladigan "Xumo" ("Semurg") sport majmui ochildi (me'mor N. Fayzullaev, 2001 y.). Unda 250 o'rinali yopiq zal, 500 o'rinali ochiq stadion, trenajer zali, massaj va sog'likni saqlash xizmatlari xonalari kabilar mavjud. Bu yerda suzish turlari bo'yicha xam musobaqalar o'gkazishga barcha sharoitlar yaratilgan. Ochiq qoldirilgan zallar devorlari va shiplarining yirik zamонавий metall konstruktsiyalari majmuuga o'ziga xos estetik ko'rinish baxsh etadi.

Respublikamiz aholisiga tibbiyat sohasida ham barcha imkoniyatlar yaratildi. Aholi salomatligini muhofaza qilish muammolari qaytadan qurila boshlandi. Cog'liqni saqlash ishining asosiy taomili — profilaktik yo'nalishni tiklash, mamlakatda yetarli dori-darmon va tibbiyat ashyolari hamda texnik vositalar ishlab chiqaradigan sanoat vujudga keltirish, davolash-profilaktika muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarib, mulkchilik shaklini o'zgartirish va sug'urta tabobatiga o'tish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Mamlakatimizda tibbiyat sohasida erishilgan natijalardan eng muhimi — onalar va bolalar o'limi soni kamaydi. Homilador ayollar va bolalar salomatligini mustahkamlash bo'yicha Milliy dastur hamda "Yosh avlodni sog'lomlashtirish kompleks dasturi"ning hayotdagi ijobiy natijalari hammaga ma'lum. Istiqlol me'morligi sahifasidan salmoqli o'rirlarni egallagan qator shifoxona, tug'uruqxona, jarrohlik markazlari, shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazlari binolarining bunyod etilishi aholi sog'lig'ini yaxshilash yo'lida qo'yilgan ulkan qadamdir. Sog'lomlashtirish va sport markazi "Alpomish" (me'morlar R. Yoqubov, G. Nefedov, R. Magay, S. Abduraxmonov, 1999 y.) Guliston shahriga kirish yo'nalishidagi eng muhim kompozitsion ob'ekt hisoblanadi. Umumiylar maydoni 2,5 hektarga yaqin bo'lib, uning bosh fasadi shimolga, ya'ni Guliston ko'chasiga qaratilgan. Markaziy qismida asosiy o'yin maydoni joylashib, uning chap

qismida yopiq tennis korti, o'ng qismida esa yengil atletika maneji va ofis majmui bunyod etilgan. Toshkentning Nazarbek shaharchasida bunyod etilgan 500 o'rini temir yo'l shifoxonasi majmuining loyixasi jaxon andozalariga mos keladigan darajada ishlab chiqilgan. Bu maskanda bemorlar parvarishi eng zamonaviy uslublarda amalga oshiriladi, davolash xonalari tibbiyot texnikasining yangi asbob-uskulalari bilan jihozlangan. Andijon shahrida joylashgan eski shahar "Dehdon bozori" qishki va yozgi mavsumga mo'ljallangan zamonaviy loyiha asosida qayta ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi. Andijon tumanidagi "Jahon bozori" (me'mor Ch. Qayumov, 1993-1995Y.) ham an'anaviy sharqona uslubda qurilib, shaharning shimoliy qismida aylanma yo'l yonida 21 gektarli yer maydonini egallaydi. Bozor majmui bir qancha savdo guruhlariga bo'lingan bo'lib, har birida ovqatlanish shohobchalari mavjud. Bozorning markaziy qismidagi xiyobonyo'llar savdo guruhlarini bir-biridan ajratib turadi hamda sotuvchi va xaridorlarga qulayliklar yaratadi.

Guliston shahrida Toshkent-Dushanba yo'naliishi (trassasi) bo'ylab "Ulgurji bozor" qurilib (me'morlar A.Saakyan, S.Azizov, S.Abduraxmonov, 1999Y.), o'zining yo'l ustida joylashishi va mohiyati bilan tadbirkorlarga katta xizmat qilmoqda. Umumiylar yer maydoni 4,5 gektardan iborat bu bozor monumental ko'rinishga ega. Uning markaziy qismida yopiq savdo zali bo'lib, tomi leksandan ishlangan yarim-sfera (shar) gumbaz bilan qoplangan. Savdo-sotiq xonalari esa bosh fasadi bo'ylab joylashtirilgan. "Ulgurji bozor" ga uchta peshtoq orqali kiriladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan aholiga savdo-sotiq ishlarini yuritish uchun qulay sharoitlar yaratilganligini Toshkent bozorlari misolida xam qurish mumkin. Toshkentda "Bektemir", "Oloy", "Parkent", "Mirobod", "Yunusobod", "Otchopar", "Karvon-bozor" kabi o'nlab bozorlar bunyod etildi va qayta ta'mirlandi. Shaharga kiraverishdagi bozorlar alohida o'rinni egallaydi. Masalan, "Farg'ona yo'li" qayta ta'mirlangandan so'ng yangicha sifatga ega bo'lib, Toshkent shahrini viloyat tumanlari bilan bog'lovchi hamda qishlok. xo'jalik mahsulotlarini yetkazib beruvchi muhim ko'chaga aylandi. Yangi qurilgan "Bektemir" bozori majmui (me'mor V. Akopdjanyan, 1998 y.) shu magistralning Toshkentdan chiqish

chegarasida joylashgan bo'lib, Chirchiq daryosining ushbu zonadagi o'zanini tartibga solish bilan bog'liq bo'lган tadbirlarni bajarishga imkoniyat yaratdi. Bu dehqon bozori 15 ming kvadrat metrli maydonda joylashib, eni 12 metrli bir-biri bilan o'zaro tutashuvchi yopiq savdo qatorlaridan iborat. Yopiq maydonchalar — favvoralar va dam olish joylari savdo qatorlari bilan ularning o'zaro tutashgan qismida tashkil etilganligi diqqatga sazovor uslubdir. Bu savdo rastalariga bezak berilgan baland ravoqlar orqali kiriladi, ularning tomi maxsus metall fermalardan qurilib, kun yorug'ini o'tkazuvchi oynasimon ko'kimtir leksan varaqalari bilan yopilganligi binoga yanada mahobatlilik baxsh etadi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i (Toshkent Bosh plani ilmiy-tekshirish va loyihalash instituti, me'mor V.Akopdjanyan, 1991-1994 y.) majmui Toshkent shahrining markaziy qismidagi dam olish zonasida joylashgan bo'lib, yirik jamoat binolari — Xalqlar do'stligi saroyi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi binosi, "Navro'z" restorani va Abulqosim madrasasi bilan yirik me'moriy ansamblni tashkil etadi.

Milliy bog' tarkibiga ilgari barpo etilgan sun'iy suv havzasi bilan madaniyat va istirohat bog'i hamda Navro'z bayrami tantanalari nishonlanadigan, ilk bor tashkil topgan yangi qism maydonlar kiritilgan bo'lib, so'lim va xushmanzara ko'rinishga ega. Bog'ning yangi qismi sharqona "chorbog'" uslubida loyihalangan, muntazam tartibli keng va shinam yo'laklardan iborat mumtoz kompozitsiyaga ega va atrofdagi yirik inshootlar bilan uzviy bog'langan.

Amir Temurning Toshkentdag'i "Otliq sarkarda" suvoriy haykalini (haykaltarosh I.Jabborov, me'morlar F.Attorafiy, B.Usmonov, 1994 y.) o'zining ulug'sifatliligi, obrazning chuqur talqin etilganligi va to'g'ri topilgan ko'lami bilan monumental haykaltaroshlikdaga yang yaxshi asarlar turkumiga kiritish mumkin. Uning postamentida "Kuch— adolatdadir" deb yozilgan Amir Temurning xikmatli so'zlari o'zbek xalqiga tog'dek tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Namanganda Mashrab va Andijonda Bobur bosharining hamda Buxoro viloyatida naqshbandiya tariqatining asoschisi Xoja Baxruddin Naqshband me'moriy majmuining ta'mirlanib, katta obodonchilik ishlari bajarilganligi ulkan voqeа bo'ldi. Diyorimiz azaldan yirik madaniyat o'chog'i bo'lgan. Binobarin, biz boy tarixiy,

me'moriy va madaniy merosga egamiz. Buxoro, Xiva, Termiz, SHahrisabz shaharlarining katta yubiley to'ylari nishonlanishi va shu munosabat bilan qisqa muddat ichida amalga oshirilgan qurilishlar va ajdodlarimiz yodgorliklarini, maqbaralarini tiklash kabi bunyodkorlik ishlari mazmuni va hajmi jihatdan asrlarga tengdir. Jumladan, xadisshunos olim, buyuk alloma Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi munosabati bilan Samarqand viloyati CHelak tumanining Xartang qishlog'ida an'anaviy me'moriy uslubda o'ta qisqa —sakkiz oy ichida yodgorlik majmui barpo etildi (1998 y.). Bu majmuada maqbara, masjid, ma'muriy bino, kutubxona va oshxona kabi inshootlar juda ko'rak va qulay joylashtirilgan.

Farg`ona va Quvada ulur munajjim, qomusiy olim al-Farg'oniyning 1200 yillik yubileyi munosabati bilan barpo qilingan keng miqyosdagi obodonchilik namunalari — Farg'onyi oromgohi, Quva SHahristonining tiklanishi Vatanimiz ko'rkiga-ko'rk bo'lib qo'shildi. SHuningdek, islom dunyosida alloma Imom al-Moturudiy kabri ustida Samarqandda qurilgan yodgorlik majmui, butun dunyo tan olgan buyuk ajdodimiz, fikr olimi Burhoniddin al-Marg'inoniy tavalludining 912 yilligi munosabati bilan Marg'ilon shahrida qad ko'targan yodgorlik majmualari ham qadimiy an'analarimizga asoslangan istiqlol me'morligimizning betakror obidalariga aylanib qoldi. Vatanimizning bosh maydoni — Mustaqillik maydonida xalqimizning tarixiy xotirasi va qadrlash salohiyatini yanada mujassamlashtiruvchi aziz maskan bunyod etildi. Bunday xotira va qadrlash maydonlarining viloyat markazlarida ham qurilishi nafaqat me'moriy majmualar bo'lib qolmay, balki xalqimiz ruxini yana ham ko'tarmoqda. Jumladan, Yunusobodda barpo etilgan «SHahidlar xotirasi» majmui xam xalqimiz ruhini ko'taruvchi, istiqlol me'morligidan o'z o'rnini egallagan obidadir. Prezident Farmoniga binoan 31 avgustni «Qatag'on qurbanlarini yod etish kuni» deb e'lon qilinishi xalqi, yurti ozodligi yo'lida o'z jonini fido qilgan mard o'g'lonlarning, shuningdek, hech qanday asossiz kataq'on kilingan, shaxdd utgan un minglab yurtdoshlarimizning yorkin xotirasini yod etish imkoniyatini berdi. Bu imkoniyatni ro'yobga chiqarishda ham Yurtboshimiz bosh-qosh bo'ldilar. Qatag'on qurbanlarini xotirlash majmui to'g'risidagi g'oya, bunyod bo'ladigan joyi, majmuaning tarkibiy qismlari, me'moriy yechilmasi va boshqalar xususidagi

ko'rsatma, maslaxatlarini me'mor va quruvchilardan ayamadilar. "SHahidlar xotirasi" yodgorlik majmui 30 gekgardan ortiq yerni o'z bag'riga olgan bo'lib, yam-yashil hududdan iborat maydonni Buzsuvning zilol kamari ikkiga ajratgan. Bu ikki qirg'oqni birlashtiruvchi ravon va go'zal ko'prik o'ziga xos salobat to'kib turibdi. Ma'lumki, O'zbekistonning tarixiy va yangi shaharlarida me'moriy obidalar qatorida turar joy binolari asosiy qismni tashkil etadi. Ularning ko'pchiligi, ayniqsa, "eski shahar" hududida qurilish materiallari va konstruktsiyalari nuqtai nazaridan (yupqa sinchli karkas, guvala devorlar, loy tomlar) umri qisqa, uzoqda chidamaydi. SHu sababli ko'xna turar joy binolari kun sayin ta'mirlanishni, ular o'rniga yangicha, chidamli turar joy binolari qad ko'tarilishini taqozo etmoqda. Misol tariqasida Toshkent shahrining Markaz-27 mikrorayonini olish mumkin. Ko'hna turar joy binolaridan bo'shatilgan yerning bir qismida uch xil tipdagi turar joylar, bolalar bog'chalari va yaslilari, umumiyligi ta'lim va musiqa maktablaridan tashkil topgan bu mikrorayonda mualliflar (G. Korobovtsev, S. Odilov va boshqalar) mahalliy iqlim sharoitlari, maishiy va madaniy an'analarni qisman hisobga olganlar. Ko'p bolali oilalarga kottej tipidagi ikki qavatli-hovlili uylar, kam kishili oilalarga to'rt va to'qqiz qavatli uylar belgilangan. Savdo va maishiy xizmat muassasalari Beruniy ko'chasi bo'ylab joylashgan. Loyihaga muvofiq ishslash, yashash, o'qish va dam olish uchun optimal shart-sharoitlar yaratilgan. To'qqiz qavatli yirik panelli turar joy binolarining yon tomonlarini rasmlar bilan bezab, sopoldan yasalgan qoplama — plitkalarda rango-rang bo'yoqlar, ayniqsa, zangori va oq ranglar ishlatilgan.

Davlat turar joylar loyihasining deyarli 50 foizi "UzLITTI" mutaxassislari tomonidan yaratilib, yirik panellar, yaxlit temir-beton bloklar, mahalliy qurilish ashyolaridan, shuningdek, seysmik mintaqalar uchun karkas-panelli va boshqa aralash konstruktsiyalardan turli qavatli, uzunligi va shakli turlicha bo'lgan turar joy binolari qad ko'tardi. SH.Rashidov xiyoboni davomida yaxlit keramzit-betondan qurilgan 16 qavatli turar joy binosi (me'mor O.Oydinova) va boshqalar yuqoridagi fikrimiz dalili bo'la oladi.

Toshkentdagagi birinchi turar joy-uy qurilish kombinata hamda "UzLITTI" loyiachilarining ijodiy hamkorligi natijasida 4 qavatli yirik panelli turar joy

loyihalarini 9 qavatliga moslash ijobiy natijalar berdi. Uylarning narxi 8 foiz, metall sarflanishi 11 foiz, mehnat sarfi esa 18 foiz kamaytirildi. SHu bilan birgalikda xonalarning qulayliklari yanada yaxshilandi. Toshkent shahrining Qorasuv, Ohangaron massivlari shu turdag'i uylardan qad ko'targan. Oybek ko'chasida qad ko'targan monolit tutashmalar hamda yaxlit keramzit- betondan yaratilgan 16 qavatli turar joy binolarida ham tejamkorlik muammolari ijobiy hal qilingan.

O'zbekistan turar joy fondining 70 foizini shaxsiy uylar tashkil etadi. Bu soxadagi ishlarni jadallashtirish maqsadida butun respublika bo'ylab aholiga yerlar tarqatildi, ularni o'zlashtirish uchun esa uzoq muddatli bank kreditlari tashkil etildi. Ayrim joylarda bu qurilish yirik turar joy massivlariga ham aylangan. Misol tariqasida Toshkentning Urikzor massivini, Namanganning Axsikent massivini, Urgutning keng ko'lamiq qurilishlarini aytib o'tish mumkin. Bu yerdagi turar joylar qurilishida me'morlik an'analarining eng ijobiy uslublari qo'llanibgina qolmay, balki yashash uchun zarur bo'lgan zamonaviy muxandislik ishlari ham keng ko'lama olib borilmoqda. Turar joy massivlari tabiiy gaz, issiq suv, kanalizatsiya kabi qator qulayliklar bilan ta'minlanmoqda.

O'zbekistan Respublikasi Prezidentining "Toshkent shahridagi uy-joy qurilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida"gi Farmoni (1996 yil 31 yanvar) e'lon qilingach, aholi uchun bir qancha moddiy yordamlar tashkil etildi. SHular qatoriga Toshkent davlat aktsiyadorlik uy-joy jamg'arma banki tuzilishi va toshkentliklarga davlat yordamida xususiy uy-joyga ega bo'lishlari uchun 10 yil ichida bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan imtiyozli kreditlar berilishi va h.k. kiradi.

Me'morlarning ko'pchiligi turli mintaqalar xususiyatlarini hisobga olib, ayniqsa, ko'hna shaharlarning turar joy domlarini ta'mirlashda maxsus loyihalar bunyod etdilar. Ular jumlasiga Xiva shahrining Ichon qal'a qismi uchun yaratilgan 1-2 qavatli uylarni (me'mor O. Qobulov), Buxoro sharoitiga moslangan 1-2 qavatli uylar turlarini (me'mor N.Sharipov) va boshqalarni kiritish mumkin.

Loyiha institutlarida, viloyatlardagi arxitektura va shaharsozlik bosh boshqarmalari qoshidagi me'morlar ustaxonalarida xilma-xil turar joy loyihalari ishlanmoqda.

Ayniqsa, "UzLITTI", "Tashgiprogor" "Toshloyiha" va deyarli hamma institutlar maxsus ishlab chiqqan loyihalarda, F.Tursunov, S.Odilov, A.Maxkamov, V.Akopdjanyan va bir qancha yetuk me'morlarning shaxsiy ustaxonalarida bunyod etilgan qator loyihalarda turar joylarning yopyg' va ravshan xonalar, keng oshxona va peshayvonlar, isitish tizimlari kabi qulayliklari ularning me'morii jozibasi bilan uzviy bog'langan. Toshkentning SHahriston qismidagi "Gulbozor" mahallasida, shimoli-sharqiy qismidagi Xusanboev ko'chasida, Samarqand viloyatining Urgut tumanida va boshqa viloyatlarda qurilgan qator turar joy binolari yuqoridagi fikrimizning dalilidir.

Toshkentning "Gulbozor" mahallasidagi xususiy uylar (me'mor F.Tursunov, 1996-1999 y.) asosan ikki qavatli bo'lib, ularning birinchi qavatining deyarli yarmida do'konlar, ustaxonalar kabi tadbirkorlik xonalari, ikkinchi yarmida esa turar joy xonalari joylashgan. Ikkinci qavatlarida faqat turar joy xonalari mavjud. Birinchi qavat arvlilari va ikkinchi atriumlarida tomlari balandligida an'anaviy shiyponlar joylashtirilganligi iqlim sharoitlarimiz hisobga olinganligidan dalolat beradi. Xusanboev ko'chasidagi kvartalda joylashgan "elit" (saralangan) xususiy uylar esa (me'mor F.Tursunov, 1999-2000 y.) xalqaro andozalar miqyosida loyihalangan; uylarning sath maydoni 220 dan 600 kvadrat metrgacha bo'lib, ikkitadan va to'rttadan birlashtirilgan va asosan hovli tomonga ochilgan. Podval qismida garaj, sauna, sport xonalari; birinchi qavatida — mehmonxona zali "kamini" bilan, kirish qismi, ovqatlanish xonasi, oshxona, uy xizmatchisining xonasi, ishxona (kabinet) bo'lsa, ikkinchi qavatida yotoqxonalar (ularning soni uchdan oltitagacha) mavjud. Uylarning uchinchi qavatida ham turli xonalar bor va tomi yassi bo'lib, foydalanishga mo'ljallangan. Mehmonxonalarini yanada kattaroq, yozgi xona — ayvon va peshayvонни qulayroq, oshxonani milliy taomlar tayyorlashga moslab loyihalash, konstruktsiyasini zilzilaga chidamli qilish, turar joylar atrofini bog'pog'lap, ko'kalamzorlar, ariqlar vositasi bilan obodonlashtirish kabi bir qator muammolarni yechish me'morlarimiz zimmasidagi eng mas'uliyatli va dolzarb vazifalardan biridir.

Turar joy mahallalarida yangi jamoat markazlari paydo bo'lmoqda, mahalla qo'mitalari uchun ma'muriy binolar sharqona uslubda qad ko'tarmoqda, sartaroshxona, dorixona, choyxona, savdo do'konlari va tibbiy xonalar aholiga xizmat qilmokda.

Zamonaviy va an'anaviy me'moriy uslublardan keng foydalanish metro bekatlarini nihoyatda ulug'vor, mo''jizakor va mazmundor qilgan. Toshkent metrosi bekatlari me'morligi bir-biridan farq qiladi. Har bir bekat o'ziga xos ko'rinishga ega. Masalan, "Ming o'rik" bekati (me'mor A.Tabibov, rassom-kulolchi S.Ivanov) uch oraliqlik (prolet) ustun tipidagi tekis tomli kompozitsiyaga ega. Bekat tematikasi gul shaklidagiqandillar va vestibyulga kiraverishdagi sopol panno orqali yoritilgan. Bekatda kulrang marmar va qora granit gabbro qoplama sifatida keng qo'llanilgan. "Yunus Rajabiy" bekati (me'morlar A.Odilova, V.Kim, rassom Ya.Afanasyev) ustunli, tomi qubbasimon shaklda bunyod etilgan. Ustunlar milliy uslubda yechilib, och marmar bilan qoplangan. Bekat platforma o'qiga o'rnatilgan sakkizta qandil va ustun boshqasi (kapitel)dagи maxsus yorug'lik uskunalari bilan yoritilgan. "Abdulla Qodiriy" bekati (me'mor F.Muzaffarova, rassom M.Isokjonov) uch oraliqlik qo'shma ustun tipidagi kompozitsiyasi bilan ajralib turadi. Markaziy qismining tomi qubbasimon shaklda bo'lsa, uning ikki yonbosh oraliqlari qovurg'asimon sathli tomlar bilan yopilgan. Uning platformasi yorug' va tantanali zal uslubida yechilgan. Vestibyuldagи "Kun va tun" deb atalgan rangli oynadan ishlangan panno metro bekatining muhim bezaklaridan bo'lib, unga yanada ko'rakamlik bag'ishlaydi. Qolgan bekatlar ham "Minor" (me'mor F.Muzaffarova), "Bodomzor" (me'mor Ya.Mansurov), "Xabib Abdullaev" (me'mor A.Odilova) bir-biridan go'zal yechimlarga ega. Me'mor va rassom-haykaltaroshlar bilan ijodiy hamkorlik davom ettirilib, yangidan-yangi badiiy yechimlar o'z ifodasini topa olgan. "Er osti saroylari"da tabiiy yorug'lik o'rnini sun'iy yorug'liklar, ranglar keng ko'lamma egallagan. Ularning bezaklarida marmar, granit toshlari qatorida metall, shisha, farfor va ayniqsa, sopol keng o'rinni egallagan.

# AMALIY MASHG`ULOTLARNING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

## MODELI

**1-mavzu: O`zbekistonning me'moriy yodgorliklari fani va uning ahamiyati.**

### Qurilish materiallari va usullari (6 soat)

O`quv vaqtি: 80 daqqaq	Talaba sonи: 30
<i>O`quv mashg`ulotining tuzilishi seminar rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. O`zbekistonning me'moriy yodgorliklari fani haqida</li> <li>2. O`zbekistonning me'moriy yodgorliklari fanining ahamiyati</li> <li>3. Qurilish materiallari va usullari</li> </ol>
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi talabalarda O`zbekistonning me'moriy yodgorliklari fani, uning ahamiyati haqida hamda me'morchilikda ishlatiladigan qurilish materiallari va usullari to`g`risida fikrlashni shakllantirish</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Asosiy masalalar bo`yicha tushunchalarini shakllantirish.	<i>O`quv faoliyatining natijalari:</i> Talabalarda fanining maqsadi, predmeti, haqida bilimga ega bo`ladilar, asosiy ma'lumotlarni o`zaro fikrlashadilar.
<i>Ta'lim usullari:</i>	Aqliy hujum, ma'ruza
<i>O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli</i>	Ommaviy
<i>Ta'lim vositalari</i>	Kompyuter, axborot texnologiyalari
<i>Qayta aloqa usullari va vositalari</i>	Savol-javob

### O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari,	Faoliyat mazmuni	
vaqtি	O`qituvchining	Talabaning
1- bosqich	1.1. O`zbekistonning me'moriy yodgorliklari fani haqida ma'lumotlar	So`zga chiqadilar.
1.1. O`quv		Tinglashadi.

huj-jatlarini to`ldi-rish va talabalar davomatini tekshirish min	beriladi, o`quv mashg`ulotiga kirish davomida dastlab talabalarga toifali jadval taklif etiladi. Jadval to`ldirilganidan so`ng mashg`ulot boshlanadi.	Aniqlashtiradilar, savollar beradilar. fan bo`yicha dastlabki tushunchalarini ifodalovchi ma'lumotlarni toifali jadvalga tushiradilar.
2 – bosqich Asosiy min.	<p>2.1. Jadval to`ldirilganidan so`ng mashg`ulot boshlanadi.</p> <p>Fanning predmeti va o`rganish obyekti, metodologik tamoyillari, tarixni yoritishda milliy qadriyatlar, xalq; an`analari va urf-odatlari, tarixiy-madaniy taraqqiyot nuqtai-nazaridan yondoshuvlar yoritib beriladi.</p> <p>Qurilish materiallari tahlil qilinadi, usullari ko`rib chiqiladi.</p> <p>2.2.Talabalar kichik guruhlarda qurilish usullari mavzusida konseptual jadval to`ldiradilar.</p>	<p>Tinglashadi, qurilish materiallari va usullari rejasi bo`yicha doskada klaster tuzishadi. Mavzu bo`yicha savollar beradilar.</p> <p>Talabalar ishtirokiga ko`ra baholanadilar.</p>
3 -bosqich. Yakuniy natijalar min.	<p>3.1 Mavzu bo`yicha xulosa qilish. Talabalar qarashlari bo`yicha umumlashtiruvchi fikr bildiriladi.</p> <p>3.2 Talabalarga jadvallarni mukammal to`ldirish taklif etiladi va o`quv mashg`ulotning maqsadiga erishish darajasi tahlil qilinadi</p> <p>3.3 Mavzu yuzasidan o`quv vazifasi beriladi.</p>	<p>O`rganilgan mavzu bo`yicha olgan ma'lumotlarni toifali jadval va klasterga tushiradilar.</p>

## 2-mavzu: Antik va o`rta asrlar me'morchiligi (6 soat)

<b>O`quv vaqtি: 80 daqiqa</b>	<b>Talaba sonи: 30</b>
<p><i>O`quv mashg`ulotining tuzilishi seminar rejasi</i></p>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Qadimgi Xorazm, So`g`d va Baqtriya me'morchiligi</li> <li>2. Kushonlar me'morchiligi</li> <li>3. Ilk o'rta asrlar me'moriy yodgorliklari. Afrosiyob me'morchiligi</li> <li>4. Me'morchilikda arab xalifaligining ta'siri.</li> </ol>
<p><i>O`quv mashg`ulotining maqsadi talabalarda</i> Qadimgi Xorazm, So`g`d va Baqtriya me'morchiligi, Kushonlar me'morchiligi, Ilk o'rta asrlar me'moriy yodgorliklari va Afrosiyob me'morchiligi hamda me'morchilikda arab xalifaligining ta'siri to`g`risida ma'lumotlarni chuqurlashtirish.</p>	
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i> Asosiy masalalar bo'yicha tushunchalarni shakllantirish.</p>	<p><i>O`quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p>O`zbekiston hududida shaharsozlikning paydo bo`lishi, ilk shaharlar – Qadimgi Xorazm, So`g`d va Baqtriya me'morchiligi haqida ma'lumot beriladi. Kushonlar me'morchilgi tahlil qilinadi. Ilk o'rta asrlar yodgorliklari sanab o'tiladi va izohlanadi. Afrosiyob me'morchilgining o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi.</p> <p>Arab xalifaligining me'morchilikka ta'siri ko`rsatiladi, uning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.</p>
<p><i>Ta'lim usullari:</i></p>	Aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash
<p><i>O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli</i></p>	Kichik guruhlarda
<p><i>Ta'lim vositalari</i></p>	Kompyuter, axborot texnologiyalari
<p><i>Qayta aloqa usullari va vositalari</i></p>	Savol-javob

## O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

Ishlash bosqichlari,	Faoliyat mazmuni	
vaqtি	O`qituvchining	Talabaning
1- bosqich 1.1. O`quv hujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish 5 min	Aqlim hujum orqali talabalar diqqati masalaga jalb etiladi.	
2 – bosqich Asosiy 50 min.	2.1. Jadval to`ldirilganidan so`ng mashg`ulot boshlanadi.  O`zbekiston hududida shaharsozlikning paydo bo`lishi, ilk shaharlar – Qadimgi Xorazm, So`g`d va Baqtriya me`morchiligi haqida ma'lumot beriladi. Kushonlar me`morchilgi tahlil qilinadi. Ilk o`rta asrlar yodgorliklari sanab o`tiladi va izohlanadi. Afrosiyob me`morchilgining o`ziga xos xususiyatlari yoritiladi.  Arab xalifaligining me`morchilikka ta'siri ko`rsatiladi, uning o`ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.	Tinglashadi, o`zaro savollar beradilar.  Talabalar ishtirokiga ko`ra baholanadilar.
3 -bosqich. Yakuniy natijalar 15	3.1 Mavzu bo`yicha xulosa qilish.  Talabalar qarashlari bo`yicha umumlashtiruvchi fikr bildiriladi.	O`rganilgan mavzu bo`yicha olgan ma'lumotlarni toifali

min.	<p>3.2 Talabalarga jadvallarni mukammal to`ldirish taklif etiladi va o`quv mashg`ulotning maqsadiga erishish darajasi tahlil qilinadi</p> <p>3.3 Mavzu yuzasidan o`quv vazifasi beriladi.</p>	<p>jadval va klasterga tushiradilar.</p>
------	---	--

### 3-mavzu: O`rta asrlar me'morchiligi

<b>O`quv vaqtি: 80 daqiqa</b>	<b>Talaba sonи: 30</b>
<i>O`quv mashg`ulotining tuzilishi seminar rejasi</i>	<p>1. IX-XIII asr boshlari me'morchiligi</p> <p>2. Amir Temur va Temuriylar davrida qurilish ishlari</p> <p>3. XVI-XVIII asrlarda me'morchilik</p> <p>4. O`rta Osiyoda xonliklar davri me'morchiligi. Buxoro, Xiva va Qo`qon xonligi yodgorliklari</p>
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi talabalarda IX-XIII asrlar va XVI-XVIII asrlarda qurilgan yodgorliklar haqida ma'lumot beriladi.</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Asosiy masalalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.	<p><i>O`quv faoliyatining natijalari:</i></p> <p>– somoniylar, qoraxoniylar va xorazmshohlar davrida bunyod etilgan davlat, jamoat va diniy inshootlar tahlil qilinadi. O`xhash va o`ziga xos jihatlari izohlanadi. Amir Temur va temuriylar davri me'moriy obidalari tavsiflanadi, ularning ahamiyati yoritiladi. O`rta Osiyoning so`nggi o`rta asrlar – xonliklar davri me'morchiligi xususiyatlari yoritiladi. Buxoro, Xiva va Qo`qon me'moriy yodgorliklari tavsiflanadi.</p>
<i>Ta'lim usullari:</i>	Aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash
<i>O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli</i>	Kichik guruhlarda
<i>Ta'lim vositalari</i>	Kompyuter, axborot texnologiyalari

<i>Qayta aloqa usullari va vositalari</i>	Savol-javob
---	-------------

### O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

<b>Ishlash bosqichlari,</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>		
	<b>vaqtি</b>	<b>O`qituvchining</b>	<b>Talabaning</b>
1- bosqich 1.1. O`quv hujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish 5 min	Aqlim hujum orqali talabalar diqqati masalaga jalb etiladi.		
2 – bosqich Asosiy 50 min.	2.1. Jadval to`ldirilganidan so`ng mashg`ulot boshlanadi.  Somoniylar, qoraxoniylar va xorazmshohlar davrida bunyod etilgan davlat, jamoat va diniy inshootlar tahlil qilinadi. O`xshash va o`ziga xos jihatlari izohlanadi. Amir Temur va temuriylar davri me`moriy obidalari tavsifланади, ularning ahamiyati yoritiladi. O`rta Osiyoning so`nggi o`rta asrlar – xonliklar davri me`morchiligi xususiyatlari yoritiladi. Buxoro, Xiva va Qo`qon me`moriy yodgorliklari tavsifланади.	Tinglashadi, o`zaro savollar beradilar.  Talabalar ishtirokiga ko`ra baholanadilar.	

3 -bosqich. Yakuniy natijalar 15 min.	3.1 Mavzu bo`yicha xulosa qilish. Talabalar qarashlari bo`yicha umumlashtiruvchi fikr bildiriladi.  3.2 Talabalarga jadvallarni mukammal to`ldirish taklif etiladi va o`quv mashg`ulotning maqsadiga erishish darajasi tahlil qilinadi  3.3 Mavzu yuzasidan o`quv vazifasi beriladi.	O`rganilgan mavzu bo`yicha olgan ma'lumotlarni toifali jadval va klasterga tushiradilar.
--	---	--

### **O'quv va topshiriq:**

#### I.1. O'quv vazifa

#### **Ekspert varaq № 1**

1. Somoniylar davri me'morchiligi haqida so`zlab bering.
2. Qoraxoniyalar davrida qurilgan inshootlar?

#### **Ekspert varaq № 2**

1. Xorazmshohlar davrida qurilgan me'moriy inshootlar
2. Amir Temur davrida qurilish ishlari haqida so`zlab bering.

#### **Ekspert varaq № 3**

1. Shayboniyalar davri me'morchiligi
2. Buxoro xonligida bunyod etilgan imoratlar

## I.2. O'rta asrlar me'morchiligi mavzusidagi konseptual jadvalni to'ldiring:

<b>Somoniylar,</b>	<b>Amir Temur va</b>	<b>Buxoro amirligi,</b>
<b>Qoraxoniylar va</b>	<b>Temuriylar</b>	<b>Xiva va Qo`qon</b>
<b>Xorazmshohlar</b>	<b>hamda</b>	<b>xonliklari</b>
<b>davri</b>	<b>Shayboniylar</b>	
	<b>davri</b>	

Masjidlar

Maqbaralar

Madrasalar

Xonakoqlar

Saroylar

Bog`lar

### 4-mavzu: XX ASR ME'MORCHILIGI

O`quv vaqtি: 80 daqiqa	Talaba sonи: 30
<i>O`quv mashg`ulotining tuzilishi seminar rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropa uslubida qurilgan inshootlar</li> <li>2. XX asrning 50-yillarigacha O`zbekiston me'morchiligi</li> <li>3. XX asr II yarmida qurilish ishlari</li> <li>4. XX asr me'morchilgining o`ziga xos xususiyatlari</li> </ol>
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi talabalarda Chorizm va Sovet davridda qurilgan yodgorliklar haqida tushuncha hosil qilish.</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Asosiy masalalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.	<i>O`quv faoliyatining natijalari:</i> XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropa uslubida qurilgan inshootlar sanab o`tiladi, ularning o`xshash va o`ziga xos jihatlari ta'kidlanadi. XX asrning

	50-yillarigacha O'zbekiston me'morchiligi haqida ma'lumotlar beriladi. XX asr II yarmida amalga oshirilgan qurilish ishlariga to`xtalinadi. XX asr me'morchilgining o`ziga xos xususiyatlari jihatlari bayon etiladi.
<i>Ta'lim usullari:</i>	Aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, munozara
<i>O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli</i>	Kichik guruhlarda
<i>Ta'lim vositalari</i>	Kompyuter, axborot texnologiyalari
<i>Qayta aloqa usullari va vositalari</i>	Savol-javob

### **O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi**

Ishlash bosqichlari,	Faoliyat mazmuni	
vaqtি	O`qituvchining	Talabaning
1- bosqich 1.1. O`quv hujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish 5 min	Aqlim hujum orqali talabalar diqqati masalaga jalb etiladi.	
2 – bosqich Asosiy 50 min.	2.1. Jadval to`ldirilganidan so`ng mashg`ulot boshlanadi.  XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropa uslubida qurilgan inshootlar sanab o`tiladi, ularning o`xshash va	Tinglashadi, o`zaro savollar beradilar.  Talabalar ishtirokiga ko`ra baholanadilar.

	<p>o`ziga xos jihatlari ta'kidlanadi. XX asrning 50-yillarigacha O`zbekiston me'morchiligi haqida ma'lumotlar beriladi. XX asr II yarmida amalga oshirilgan qurilish ishlariga to`xtalinadi. XX asr me'morchilgining o`ziga xos xususiyatlari jihatlari bayon etiladi.</p>	
3 -bosqich. Yakuniy natijalar 15 min.	<p>3.1 Mavzu bo`yicha xulosa qilish. Talabalar qarashlari bo`yicha umumlashtiruvchi fikr bildiriladi.</p> <p>3.2 Talabalarga jadvallarni mukammal to`ldirish taklif etiladi va o`quv mashg`ulotning maqsadiga erishish darajasi tahlil qilinadi</p> <p>3.3 Mavzu yuzasidan o`quv vazifasi beriladi.</p>	O`rganilgan mavzu bo`yicha olgan ma'lumotlarni toifali jadval va klasterga tushiradilar.

## **1. Munozara o'tkazish tartibi va reglamenti**

**Ma'ruza vaqtি** 5 daqiqa

**Taqrizchilar so'zi** 2 daqiqa

**Tanqidchilar so'zi** 1-2 daqiqa

**Ma'ruzani jamoa bo'lib muhokama  
qilish** 5-10 daqiqa

## **2. Muhokama ishtirokchilarining baholash mezonlari va ko'rsatgichlari**

**qatnashchilar**

**Baholash mezonlari va ko'rsatgichlari                            Ma'ruzachilar ismi sharifi**

**1                            2                            3                            4**

**1.Ma'ruza mazmuni**

**Mavzuga mosligi**

**Bayon etishdagi**

**aniqlik,**

**mantiqiylik,**

**izchillik,**

**to'liqlik.**

**Xulosalarning aniq bayon etilishi**

**2.Axborot berishda ko'rgazmalilik**

**3. Reglamentga amal qilinishi**

**Jami (maksimal)**

---

## 5-mavzu: Mustaqil O'zbekiston me'morchiligi (6 soat)

<b>O`quv vaqtি: 80 daqiqa</b>	<b>Talaba sonи: 30</b>
<i>O`quv mashg`ulotining tuzilishi seminar rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mustaqillik yillarda me'morchilik va obodonlashtirish ishlariga e'tibor</li> <li>2. Mustaqillik yillarda qad rostlagan yirik inshootlar</li> <li>3. Milliy va zamonaviy me'morchilikni uyg`unlashtirish masalalari</li> </ol>
<i>O`quv mashg`ulotining maqsadi talabalarda Mustaqillik davri me'morchiligi haqida tushuncha hosil qilish.</i>	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> Asosiy masalalar bo`yicha tushunchalarini shakllantirish.	<i>O`quv faoliyatining natijalari:</i> Mustaqillik yillarda me'morchilik va obodonlashtirish ishlariga e'tibor aniq dalillar misolida ko`rsatib beriladi. Mustaqillik yillarda qad rostlagan yirik inshootlar tavsiflanadi. Milliy va zamonaviy me'morchilikni uyg`unlashtirish masalalari haqida ma'lumot beriladi.
<i>Ta'lim usullari:</i>	Aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, munozara
<i>O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli</i>	Kichik guruhlarda
<i>Ta'lim vositalari</i>	Kompyuter, axborot texnologiyalari
<i>Qayta aloqa usullari va vositalari</i>	Savol-javob

### O`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi

<b>Ishlash bosqichlari,</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
<b>vaqtি</b>	<b>O`qituvchining</b>	<b>Talabaning</b>
1- bosqich 1.1. O`quv	Aqlim hujum orqali talabalar diqqati masalaga jalb etiladi.	

hujjatlarini to`ldirish va talabalar davomatini tekshirish 5 min		
2 – bosqich Asosiy 50 min.	<p>2.1. Jadval to`ldirilganidan so`ng mashg`ulot boshlanadi.</p> <p>Mustaqillik yillarida me'morchilik va obodonlashtirish ishlariga e'tibor aniq dalillar misolida ko`rsatib beriladi.</p> <p>Mustaqillik yillarida qad rostlagan yirik inshootlar tavsiflanadi. Milliy va zamonaviy me'morchilikni uyg`unlashtirish masalalari haqida ma'lumot beriladi.</p>	<p>Tinglashadi, o`zaro savollar beradilar.</p> <p>Talabalar ishtirokiga ko`ra baholanadilar.</p>
3 -bosqich. Yakuniy natijalar 15 min.	<p>3.1 Mavzu bo`yicha xulosa qilish. Talabalar qarashlari bo`yicha umumlashtiruvchi fikr bildiriladi.</p> <p>3.2 Talabalarga jadvallarni mukammal to`ldirish taklif etiladi va o`quv mashg`ulotning maqsadiga erishish darajasi tahlil qilinadi</p> <p>3.3 Mavzu yuzasidan o`quv vazifasi beriladi.</p>	<p>O`rganilgan mavzu bo`yicha olgan ma'lumotlarni toifali jadval va klasterga tushiradilar.</p>

## **O'quv va topshiriq:**

### I.1. O'quv vazifa

#### **Ekspert varaq № 1**

1. Mustaqillik yillarda qurilgan yirik davlat inshootlari haqida so`zlab bering.
2. Mustaqillik yillarda qurilgan yirik bozorlar?

#### **Ekspert varaq № 2**

1. O`zbekistonda tarixiy binolarni ta'mirlash va qayta tiklash ishlari
2. Yirik savdo inshootlari haqida so`zlab bering.

#### **Ekspert varaq № 3**

1. Tibbiyot va ta'lif inshootlariga e'tibor
2. Milliy va zamonaviy me'morchilikni uyg'unlashtirish masalalari

### **I.2. Mustaqillik davri me'morchiligi mavzusidagi konseptual jadvalni to'ldiring:**

**1991-2000**

**2000-2010**

**2010-yildan keyin**

Davlat

Jamoat

Turar joylar

Diniy inshootlar

## **O`zbekistonning me`moriy yodgorliklari fanidan tavsiya etiladigan xorijiy adabiyotlar ro`yxati**

1. Abbot J. Narrative a Jorney hrom to Khiva, Moscow and St. Peterbetg during the Lfte Russian invasion of Khiva: With some account of the court of Khiva and Kingdom of Khaurism. 3 rt el. Vol. I-II. – London, 1884.
2. Barnabi F. A ride to Khiva: Trevers and adventures in Central Asia. 4 th ed. – London, – Paris, – New York, 1976/
3. Collet H. Contribution rowars the deter Khowledje of the topographe, ethnographe, resosurs and history of the Kanat of Khiva, chmpiled (for political and military reference) by H.Collect. Calcutta: Foreing Departament Press, 1873.
4. Hunway J. An Historical account of British trde over the Caspian Sea: With the authors journal from England though Russia; and Back through Russia, Germany and Holland 2 d ed., revised and corrected. Vol. I-II. – London, 1754.
5. Schakspyer R.A. A personal narrative of a Journey from Heart to Ourenburg, in the Caspian, in 1840. Blacwood`s Magazine, N 320. Vol. LI (1842).
6. Moser H. A travels I`Asie Central. Impresions de voyage. – Parij, 1885.
7. Sewarz F. Turkestan, die Wiege der indo-fermaischen Volker. Nach funtcheinjahrgen Aufenthall in Turkestan dargesetellt. Freiberg im Breisgau, 1900.



